

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida
UDK:331.2(571.56)

YOQUBOV JAHONGIR

**TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA TASHQI AUDITNI TASHKIL
ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

Mutaxassislik: 5A230901- "Buxgalteriya hisobi" (Paxta, to'qimachilik va yengil sanoat)

Magistr akademik darajasini
olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

t.f.n., dost. Majidov A.A.

«__» _____ 2014 y.

Toshkent – 2014

MUNDARIJA

KIRISH	3
I -BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TO'QIMACHILIK KORXONARIDA TASHQI AUDITNI TASHKIL ETISHNI NAZARIY MASALALARI	
1.1. Respublika to'qimachilik korxonalarida tashqi auditning ijtimoiy- iqtisodiy ahamiyati va rivojlanishi.....	7
1.2. To'qimachilik korxonalarida tashqi audit tekshiruvini o'tkazishning nazariy-huquqiy asoslari va uni takomillashtirish masalalari.....	17
II - BOB. TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA TASHQI AUDIT TEKSHIRUVI O'TKAZISHNI AMALDAGI HOLATI VA USLUBIYOTINING TAHLILI	
2.1. O'zbekiston Respublikasida to'qimachilik korxonalarida tashqi audit tekshiruvini tashkil qilishning xususiyatlari.....	26
2.2. Korxonalarda tashqi audit tekshiruvini o'tkazishni rejalashtirish va auditorlik dalillarini to'plash usullari.....	39
III -BOB. IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARI TASHQI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	
3.1. O'zbekistonda tashqi audit tekshiruvini o'tkazishda xalqaro standartlarni qo'llash imkoniyatlari.....	49
3.2. To'qimachilik korxonalarini tashqi audit tekshiruvidan o'tkazish jarayonida moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlarini joriy etish masalalari.....	58
XULOSA VA TAKLIFLAR	69
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	71
ILOVALAR	77

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishi bilan bog'liq yangi iqtisodiy munosabatlar buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etish hamda uni takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Turli mulkchilik shakllariga asoslangan xo'jalik sub'ektlarida moddiy boyliklar, mehnat va moliyaviy resurslar qay darajada samarali taqsimlanganligiga baho berishda, ular faoliyatining shaffofligini ta'minlashda tashqi audit o'tkazish alohida ahamiyatga ega. Mamlakatimiz moliyaviy xizmatlar bozorida nazorat tizimi sifatida mustaqil faoliyat yurituvchi tashqi auditni takomillashtirish iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "...Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi – 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi. Inflyatsiya darajasi prognoz ko'rsatkichidan past bo'ldi va 6,8 foizni tashkil etdi.

O'tgan yil yakunlariga ko'ra, tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 foizni, eksport hajmiga nisbatan qariyb 60 foizni tashkil etdi. Bu avvalambor xorijiy investitsiyalar va umuman, chetdan qarz olish masalasiga chuqur va har tomonlama puxta o'ylab yondashish natijasidir.

Yurtimizda qabul qilingan 2011-2015 yillarda sanoatni ustuvor darajada rivojlantirish dasturi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dasturlarining izchil amalga oshirilishi natijasida sanoat tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, raqobatdosh mahsulotlar tayyorlayotgan qayta ishlash tarmoqlarining o'rni tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 78 foizdan ortig'i aynan ana shu tarmoqlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. 2013 yilda yuqori texnologiyalarga asoslangan mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati 121 foizga, qurilish materiallari sanoati 113,6 foizga,

yengil sanoat 113 foizga va oziq-ovqat sanoati 109 foizga o'sgani misolida buni yaqqol ko'rish mumkin".

Shuningdek, mahsulot raqobatdoshligini ta'minlash uchun ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash bo'yicha katta va kichik loyihalarni izlash, buning uchun zarur mablag' va manbalarni topish – bu har bir korxonalar rahbari va muhandis-texnik xodimlarining birinchi navbatdagi eng muhim vazifasi va majburiyati bo'lmog'i kerak².

Iqtisodiyotning moliyaviy sektorida to'qimachilik korxonalarini faoliyati samaradorligini baholashda tashqi audit nazorati muhim va zaruriy vositadir. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash bosqichida korxonalarda tashqi audit o'tkazishning yangicha, zamonaviy metodlarini ishlab chiqish, joriy etish, audit o'tkazishni takomillashtirish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muhim muammo hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, respublikamizda tashqi audit o'tkazishni xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish asosida uni takomillashtirish dolzarb vazifalardan biridir.

Tadqiqotning o'rganilganlik darajasi. Tashqi auditning vujudga kelishi va rivojlanishining umumnazariy jihatlari xorijiy mamlakatlar olimlaridan E.A.Arens, Dj. Lobbek, V.D Andreev, A.M.Bogomolov, A.D.Sheremet, V.P. Suyts kabi olimlarning va respublikamizning iqtisodchi olimlari R.D.Do'smurotov, A.K.Ibragimov, N.F.Karimov, A.A.Karimov, X.N.Musaev, Z.T.Mamatov, S.Norqobilov, M.Q.Pardaev, B.A.Xasanov, M.M.Tulaxodjaeva, B.Q.Hamdamlarning ilmiy ishlarida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda audit, moliyaviy nazorat va moliyaviy hisobot auditi hamda uning uslubiyotini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. To'qimachilik korxonalaridagi tashqi auditning nazariy masalalari va uni o'tkazish uslubiyotini takomillashtirishga oid ilmiy-tadqiqotlar etarlicha amalga

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yunalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi. 19.01.2014.

o'shirlmagan. Yuqoridagi holatlar auditning nazariy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishini taqozo etadi.

Tadqiqot ob'ekti. To'qimachilik korxonalarini tashqi auditni o'tkazish bilan shug'ullanuvchi auditorlik tashkilotlari ilmiy-tadqiqotning ob'ekti hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida to'qimachilik korxonalarida tashqi audit tekshiruvini o'tkazishni tashkil qilish jarayonida yuzaga kelgan iqtisodiy munosabatlar tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit xizmatini tashkil etish va takomillashtirish yo'nalishlariga bag'ishlangan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Tadqiqotda belgilangan maqsadga erishish uchun magistrlik dissertatsiya oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- tashqi audit tekshiruvini o'tkazishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga oid ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;
- to'qimachilik korxonlari faoliyatida tashqi audit tekshiruvini tashkil qilish va o'tkazish amaliyotidagi mavjud muammolar hal etilishiga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqish;
- to'qimachilik korxonlari auditorlik tekshiruvini amalga oshiruvchi tashkilotlarni reytingini aniqlash mezonlari ishlab chiqish;
- to'qimachilik korxonlarida audit tekshiruvlari uslubiyoti va mexanizmini takomillashtirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;
- korxonalarda tashqi audit tekshiruvini o'tkazishning takomillashtirilgan rejasi ishlab chiqish hamda auditorlik dalillarini to'plashda testlash, skanerlash, tahliliy amallarning samarali usullar ekanligi asoslash;
- to'qimachilik korxonlari moliyaviy hisobotini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga, tashqi audit natijalarini rasmiylashtirish auditning xalqaro standartlariga muvofiq takomillashtirish yo'llari ko'rsatib berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- tashqi audit tekshiruvini o'tkazishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga

oid ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi;

- to'qimachilik korxonlari faoliyatida tashqi audit tekshiruvini tashkil qilish va o'tkazish amaliyotidagi mavjud muammolar hal etilishiga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi;

- to'qimachilik korxonlari auditorlik tashkilotlari reytingini aniqlash mezonlari ishlab chiqildi;

- to'qimachilik korxonlarida audit tekshiruvlari uslubiyoti va mexanizmini takomillashtirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi;

- korxonalarda tashqi audit tekshiruvi o'tkazishning takomillashtirilgan rejasi ishlab chiqildi hamda auditorlik dalillarini to'plashda testlash, skanerlash, tahliliy amallarning samarali usullar ekanligi asoslandi;

- to'qimachilik korxonlarida tashqi audit o'tkazish jarayonida audit riskini kamaytirish maqsadida kapital etariligi, aktivlar va kapital rentabelligi, aktiv va passivlar dinamikasi, kredit portfelining risk darajasi, kredit va investitsiya portfeli moliyaviy koeffitsientlari asosida tizimli tahlil usullarini qo'llash bo'yicha ilmiy tavsiyalar berildi;

- to'qimachilik korxonlari moliyaviy hisobotini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga, tashqi audit natijalarini rasmiylashtirish auditning xalqaro standartlariga muvofiq takomillashtirish yo'llari ko'rsatib berildi.

Tadqiqot usullari. Magistrlik dissertatsiyada analiz va sintez, guruhlash, qiyoslash, tanlab kuzatish, iqtisodiy tahlil va statistika usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishida tashqi audit tekshiruvi o'tkazish bo'yicha olingan nazariy va amaliy xulosalar, ishlanmalarda mazkur muammoning echimini topish tashqi auditni samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Tadqiqot ishining umumiy hajmi 77 bet bo'lib, unda 4 ta jadval va 11 ta rasmlar o'rin olgan.

I-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TO'QIMACHILIK KORXONARIDA TASHQI AUDITNI TASHKIL ETISHNI NAZARIY MASALALARI

1.2. Respublika to'qimachilik korxonalarida tashqi auditning ijtimoiy- iqtisodiy ahamiyati va rivojlanishi

Auditorlik faoliyati auditorlik tashkiloti tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning buxgalteriya (moliya) va soliq hisobotini, buxgalteriya hisobi hujjatlarini, hamda boshqa moliyaviy majburiyatlarini mustaqil tekshirishlarini amalga oshiradigan, shuningdek boshqa auditorlik xizmati ko'rsatadigan tadbirkorlik faoliyatidir.

Respublikamizda tashqi audit auditorlik faoliyatining paydo bo'lishi bilan birga, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq boshlandi. Ma'lumki, har bir faoliyat turini boshlash ma'lum huquqiy asoslarni talab etadi. «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi dastlabki Qonun 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan edi. Ammo, ushbu Qonun qabul qilinishi bilan auditorlik faoliyati o'z taraqqiyotini topdi, deya olmaymiz. Chunki, bunga bir necha to'siqlar mavjud edi: Birinchidan, deyarli barcha mulk davlatniki edi, hali xususiylashtirish jarayoni endigina boshlangan davrda auditorlik xizmatiga muhtojlarni topish ancha qiyin masala bo'lgan. Ikkinchidan, auditorlik kasb-vazifasini bajaruvchi mutaxassis-auditorlar hali yo'q edi, chunki ularni o'qitish, qayta tayyorlash ma'lum vaqt talab qilar edi. SHuning uchun, auditorlar vazifasini vaqtinchalik sobiq taftishchilar amalga oshirib turdilar. Uchinchidan, milliy valyuta islohoti to'la-to'kis, bekamu-ko'st ishlamayotgan bir paytda, auditorlik xizmatidan foydalanish u yoqda tursin, audit o'zi nima ekanligini tushunmaydiganlar salmog'i mamlakatda ko'pchilikni tashkil qilar edi. Shu bois, mamlakatda iqtisodiy tizim bir me'yorda ishlay boshlagan davr 1994 yil iyun oyida milliy valyutamiz muomalaga joriy qilingan davrga to'g'ri keladi. Qolaversa, kimlardir buni mamlakatimizda «Xususiylashtirish to'g'risida»gi Qonun qabul qilingan davr bilan bog'lashlari mumkin. Chunki, mulkni real baholashni faqat mustaqil ekspertlar amalga oshirishlari kerak edi. Keyinchalik,

auditorlik xizmatlari bozorida bu xizmatning alohida shakllanishiga olib keldi. Ya'ni, «Mulkni baholash to'g'risida»gi Qonun yaratilishi bilan auditorlik tashkilotlari baholovchi korxonalariga o'z o'rnini bo'shatib berdi. Shu bois, dastlabki umumiy audit faoliyati boshlangan davr 1994 yilning ikkinchi yarmi degan xulosaga kelamiz. Shuningdek, to'qimachilik korxonalarida o'tkaziladigan tashqi audit tekshiruvlari sifati, ta'sirchanligini oshirish va auditorlik faoliyatini takomillashtirish, auditorlik firmalari o'rtasida erkin va sog'lom raqobat munosabatlarini kuchaytirish hamda aholi va sarmoyadorlarning korxonalar tizimiga bo'lgan ishonchini yanada oshirish maqsadida 1996 yil 24 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Korxonalar auditini tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilinishi bilan ushbu farmonning ijrosi respublikada korxonalar auditini shakllantirish va mustahkamlashning amaliy bosqichini boshlab berdi.

Umuman olganda, auditorlik faoliyati va tashqi audit o'zining ma'lum rivojlanish tarixiga ega. Iqtisodiy munosabatlarning takomillashib borishi hamda jamiyat taraqqiyotining vujudga kelishi mulkdan ko'proq foyda olish vazifasining dolzarbligi tashqi auditning vujudga kelishini zaruriyat qilib qo'yadi. Audit bozor infratuzilmasining tarkibiy qismi bo'lib, tadbirkorlik faoliyatining ma'lum turi sifatida shakllandi va rivojlanmoqda. Umuman, jahon amaliyotida auditorlik kasbiga XIX asrda asos solinganligi maxsus adabiyotlardan ma'lum. Iqtisodchi olim To'laxo'jaeva M.M. ham shunga o'xshash mulohaza yuritib, quyidagilarni ta'kidlaydi: «Auditga dastlab Buyuk Britaniyada XIX asr o'rtalarida 1844 va 1862 yillarda aktsiyadorlik kompaniyalari to'g'risidagi qabul qilingan qonunlarda ularga yillik hisobotlarini tekshirish uchun auditorni taklif qilishlari tavsiya qilinganligi bilan asoslash mumkin. Keyinchalik ularning professional birlashmalari 1854 yilda dastlab Shotlandiyada, 1880 yilda Angliya va Uelsda, 1881 yilda Frantsiyada, 1887 yilda AQSHda, 1885 yilda Gollandiyada, 1896 yilda Germaniyada, 1899 yilda Shvetsiyada, 1903 yilda Belgiyada tashkil topgan». Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda auditning kelib chiqish davri 1850 yillarga kelib taqaladi va uning vatani Buyuk Britaniya ekanligi e'tirof etilgan. Iqtisodchi olimlardan bir guruhi

esa, yuqoridagi mulohazaga yaqin fikr bildirib, quyidagilarni keltiradi: «Audit nazorat quroli sifatida tarixiy jihatdan qisqa davrda, ya'ni, XIX asr o'rtasidan hozirgi davrgacha kuchli rivojlanmoqda.

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz iqtisodiyotining moliyaviy sektorida etakchilik qilayotgan to'qimachilik korxonalari faoliyatini doimiy nazorat qilib borish muhim ahamiyatga ega. Ushbu vazifani amalga oshirishda tashqi audit tekshiruvining alohida o'rni mavjud. Respublikamizda tashqi audit tekshiruvi o'tkazish Qonun asosida belgilab qo'yilgan. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida tashqi audit xizmatiga bo'lgan talab-ehtiyojlar ortib bormoqda. Audit xizmatiga bo'lgan talablarni esa, quyidagi holatlar bo'yicha izohlash mumkin:

- turli mulkchilik shakllariga asoslangan to'qimachilik korxonalari moliyaviy hisobotini xolisona baholash maqsadida uning haqqoniyligini asoslash zaruriyatining mavjudligi;

- to'qimachilik korxonalarida buxgalteriya hisobini milliy va xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash;

- to'qimachilik korxonalarida moliyaviy hisobotning xalqaro standarti talablari asosida auditorlik hisoboti tuzish majburiyiligi.

Bu shart-sharoitlar mustaqil ekspertlar - tashqi auditorlar xizmatiga bo'lgan jamoa ehtiyojining paydo bo'lishiga olib keldi. Shu mustaqil ekspertlar maxsus tayyorgarlik, malaka va tajribaga ega bo'lishi talab qilinar edi. Tashqi audit xizmati - bu vositachilik xizmati bo'lib, Korxonalar moliyaviy hisobotining haqiqiy va ishonchli ekanligini tasdiqlab, uning moliyaviy holatiga ob'ektiv va aniq xulosa beradi.

Hozirgi kunga kelib, mamlakatimizda auditorlik faoliyatini olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarga moslashtirish va rivojlantirish uchun bir qator tashkiliy-uslubiy va amaliy ishlar amalga oshirildi. Jumladan: respublikamizda auditorlik faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi, Auditorlar Palatasi tashkil topdi, Respublika Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi faoliyat yuritmoqda, auditorlik faoliyatini yuritish uchun ruxsat berish tartibi belgilangan, auditorlarni

tayyorlash va qayta tayyorlash yo'lga qo'yildi. Respublikamiz hududida bir nechta mahalliy va xorijiy auditorlik tashkilotlari ro'yxatdan o'tib, faoliyat yuritmoqda. Bular jumlasiga: «kuchli to'rtlik»ka kiruvchi xorijiy auditorlik kompaniyalaridan «Deloitte&Touche», «PWC», «Ernst&Young» va mahalliy tashkilotlardan «Holis Guruh», «Audikon», «Arhat Audit», «Impuls-Audit», «Marikon-Audit», «Konsauditinform» va boshqa auditorlik tashkilotlarini kiritish mumkin.

Auditorlik faoliyatining rivojlanishi bevosita tashqi audit tekshiruvining mohiyatini to'la tushunish bilan izohlanadi. Tashqi audit tekshiruvining mohiyati iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tashqi audit yangi iqtisodiy kategoriya sifatida alohida mazmun kashf etmoqda. Ushbu holat tashqi auditga yangicha nuqtai nazardan yondashishni talab qiladi.

Iqtisodchi olim G.N.Beloglazova fikriga ko'ra: «Tashqi audit - shartnoma asosida auditorlik firmalarining mustaqil auditorlari tomonidan xo'jalik sub'ekti faoliyatini mamlakat qonunchiligi va Korxonalar me'yoriy hujjatlariga muvofiq nazorat qilish faoliyatidir». N.V.Parushina va S.P.Suvorovalar esa: «Tashqi audit - auditorlik firmalari tomonidan shartnoma asosida xo'jalik sub'ektining buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisoboti haqqoniyligini ob'ektiv baholash maqsadida o'tkaziladigan faoliyat», deb ta'rif berishgan. V.V.Skobara: «Tashqi audit - mustaqil auditor tomonidan qonunchilik va ahloqiy me'yorlar asosida aniqlanadigan, o'tkaziladigan audit turidir», deb ta'kidlaydi. M.S.Shidlovskaya ham bu borada quyidagicha munosabat bildiradi: «Tashqi audit - nazoratning mustaqil shaklidir». H.N.Musaev esa, tashqi auditning mohiyatini quyidagicha e'tirof etgan: «Tashqi audit - bu tashqi manfaatdorlarning buyurtmalariga asosan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshirish va ekspertiza qilishdir». B.A.Hasanov, Z.A.Aliboev va M.Sh.Zokirovalar: «...tashqi audit moliyaviy audit bo'lib, barcha faoliyat tavakkalchiliklari pirovard natijada faoliyatning moliyaviy ko'rsatkichlari qiymatida, davlat, uning fuqarolari, tashkilotlari va korxonalarining daromad va xarajatlarida aks etadi», deb ta'kidlashadi.

Tashqi audit tekshiruvini majburiy bo'lmagan hollarda ham o'tkazish katta ahamiyatga ega. Iqtisodiyotda korxonalar, kredit muassasalari va boshqa xo'jalik sub'ektlari mulkini, pul mablag'larini ishlatish, tijorat operatsiyalarini va investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha shartnomaviy munosabatlarga kiradilar. Bu munosabatlarning ishonchliligi, albatta, moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyati bilan bog'liq. Ma'lumotning aniqligini mustaqil auditorlar tasdiqlaydi.

Tashqi auditni rivojlantirishning ob'ektiv zaruriyati, hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilarning bevosita bildirgan fikr va mulohazalari, talab va tavsiyalari orqali namoyon bo'ladi. Barcha manfaatdorlarni to'qimachilik korxonasi moliyaviy holati va natijalari qiziqtiradi. Asosan, ular hamkor-sherik tashkilotlardir. Shuning uchun, moliyaviy hisobot to'g'risida ishonchli axborotga muhtojdirlar. Ushbu fikr yuzasidan iqtisodchi olim Mamatov Z.T. mulohaza yuritib, uni ikki toifaga ko'ra: ichki va tashqi manfaatdor tomonlarga bo'ladi. Ichki taraflar sifatida ma'muriyat, hamkor tashkilotlar, kuzatuv kengashi, Korxonalar xodimlari xizmat qilsa, tashqi manfaatdorlarga investorlar, korxonalar mijozlari, davlat organlari va boshqa korxonalar-kreditorlarni kiritadi. Tashqi audit xulosasi ularga to'g'ri qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 615-sonli Qaroriga muvofiq «Auditorlik tashkilotlari to'g'risida» Nizom tasdiqlandi. Bu nizomga asosan auditorlik firmalari 2008 yil 1 yanvargacha qadar Adliya vazirligidan qayta ro'yxatdan o'tishlari va auditorlik firmalari auditorlik tashkilotiga o'zgartirishlari shart qilib belgilandi. Auditorlik tashkilotlarini tashkil qilish yangi tartibda, ya'ni ular 3ta guruhga bo'lingan holda amalga oshirilishi nazarda tutildi. Ushbu nizomga muvofiq quyidagicha tashkil etish belgilab qo'yildi:

1. Faqat tashabbuskorlik asosida auditorlik tekshiruvini amalga oshiruvchi auditorlik tashkilotlari eng kam oylik ish haqining 1500 barobari miqdoridan kam bo'lmagan ustav kapitaliga va shtatida kamida 2 nafar auditorga ega bo'lishi;

2. Ustav kapitali 500 mln. so'mdan ko'proqni tashkil etgan ochiq aktsiyadorlik jamiyatlari, korxonalar va sug'urta tashkilotlaridan tashqari xo'jalik

yurituvchi sub'ektlarda tashabbuskorlik asosida va majburiy auditorlik tekshiruvlarini amalga oshiruvchi auditorlik tashkilotlari eng kam oylik ish haqining 3000 barobari miqdoridan kam bo'lmagan ustav kapitaliga va shtatida kamida 4 nafar auditorga, ularning bittasi xalqaro buxgalter sertifikatiga ega bo'lishi;

3. Barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda auditorlik tekshiruvini o'tkazuvchi auditorlik tashkilotlari eng kam oylik ish haqining 5000 barobari miqdoridan kam bo'lmagan ustav kapitaliga va shtatida kamida 6 nafar auditorga, ularning ikkitasi xalqaro buxgalter - CAP sertifikatiga ega bo'lishi shart.

Audit iqtisodiyotning turli sohalarida o'tkazilishiga ko'ra turi va shakllari jihatidan farqlanadi. Auditorlik faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlar va maxsus adabiyotlarni tahlil qilish natijasida ularning quyidagi turlarini aniqlash imkonini berdi. Tadbirkorlik faoliyatiga kiruvchi auditning maqsadi, vazifalari va ob'ektlariga qarab turli mezonlar bo'yicha tasniflanadi (1.1-rasm).

№	Mezonlar	Turlar
1.	Audit tekshiruvini tashkil qilinishi va o'tkazilishiga ko'ra	1. Ichki 2. Tashqi
2.	Me'yoriy-huquqiy hujjatlar talabiga ko'ra shakli	1. Majburiy 2. Tashabbus
3.	Ob'ektiga ko'ra	1. Korxonada 2. Sug'urta tashkilotlari 3. Birjalar, investitsion muassasalar va byudjetdan tashqari fondlar 4. Umumiy 5. Maxsus savol va topshiriqlar bo'yicha o'tkaziladigan
4.	Maqsadi va nomlanishiga ko'ra	1. Moliyaviy hisobot 2. Soliqlar hisobi va qonunchiligi 3. Iqtisodiy samaradorlik 4. Talabga muvofiq o'tkaziladigan 5. Aktivlarni baholash xizmati 6. Boshqaruv 7. Xo'jalik muomalalari 8. Maxsus (ekologik, ijtimoiy, operatsion va boshq.)
5.	O'tkazish vaqti bo'yicha	1. Dastlabki 2. Takroriy 3. Operativ

6.	Tekshiruv xarakteri bo'yicha	<ol style="list-style-type: none"> 1. Tasdiqlovchi audit 2. Sistemali yo'naltirilgan audit 3. Riskka asoslangan audit
----	------------------------------	--

1.1.1-rasm. Audit tasnifi

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2006 yil 27 sentyabrdagi PQ-475-sonli qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxonalarining samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-sonli qaroriga muvofiq, aktivlarining balans qiymati 1 mlrd. so'mdan ortiq bo'lgan korxonalarda ichki auditni tashkil etish tartibini belgilash maqsadida qabul qilingan «Korxonalaridagi ichki audit xizmati to'g'risida Nizom»ga ko'ra: «ichki audit - korxonalar boshqaruvining ijro etuvchi organi va tarkibiy bo'linmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, ta'ris hujjatlariga va ichki hujjatlarga rioya qilinishini tekshirish va monitoring olib borish yo'li bilan ular ishini nazorat qilish va baholash, ma'lumotlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks etirilishining to'liqliligi va ishonchliligini ta'minlash, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va taomillari, aktivlarning saqlanishi hamda korporativ boshqarish printsiplari joriy etilishi bo'yicha korxonalar tarkibiy bo'linmasining faoliyati tushuniladi».

Tashqi auditning asosiy buyurtmachilari xususiy sektorga taalluqlidir. Ularga, asosan: ta'rischilar, investorlar, kreditorlar, korxonalar muassasalari kiradi. Biroq, ba'zida davlat boshqaruv organlari, soliq idoralari va boshqa manfaatdorlar ham buyurtmachi hisoblanadilar. Tashqi audit xolis auditorlar va auditorlik tashkilotlari tomonidan o'tkaziladi.

Shuningdek, ushbu audit turi haqida O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar va korxonalar faoliyati to'g'risida»gi 1996 yil 25 aprel Qonunining 43-moddasiga binoan, «Korxonalarining faoliyati qonun hujjatlariga muvofiq auditorlik tekshirishlarini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan

auditorlar tomonidan har yili tekshirib turilishi lozim. Asosiy qaror faqat tashqi audit natijalari bo'yicha qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan 2000 yil 24 iyundagi 403-sonli tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi korxonalarida audit tekshiruvlarini o'tkazish to'g'risida»gi Nizomga asosan Moliya Vazirligining 2007 yil 18 oktyabrda ishlab chiqilgan 661-sonli «O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik korxonalarida 2007 yil yakunlari bo'yicha auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishga Moliya Vazirligi talablari»ga muvofiq korxonalar faoliyatining tahlili va mustaqil ekspertiza hisoblangan tashqi auditing maqsadlari sifatida korxonalar moliyaviy hisoboti haqqoniyligi va ishonchliligini aniqlash, buxgalteriya hisobi yoki moliyaviy hisobotni yuritishga qo'yilgan talablarga muvofiqligi, ob'ektivligi va to'liqligini aniqlash hamda korxonalar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining me'yoriy-huquqiy hujjatlari va korxonalar qonunchiligi talablari bajarilganligini tekshirish ta'kidlab o'tilgan. Shu bois, bizningcha, korxonalarda tashqi auditing asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq:

- korxonalar faoliyatida qabul qilingan qonunlar, nizomlar va boshqa me'yoriy xujjatlarga to'liq amal qilinishini tekshirish;
- korxonalar boshqaruv sifati va ichki nazorat ahvolini baholash;
- korxonalar mulkining maqsadli foydalanishi va samaradorligini tahlil qilish;
- chetdan jalb qilingan va sarmoyalarning to'g'ri foydalanishini tekshirish;
- soliqqa tortiluvchi ko'rsatkichlar, soliqlarning to'g'ri hisoblanishini va byudjetga to'liq o'tkazilishini nazorat qilish;
- o'zaro hisob-kitoblarning to'g'ri olib borilishini tekshirish;
- korxonaning hisob siyosati va unga to'liq rioya qilinishini aniqlash;
- moliyaviy hisobotning asoslilik va haqqoniylik va shaffofligiga holisona baho berishdan iborat.

Korxonalarining faoliyati murakkab operatsiyalar va jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ular faoliyatida sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlarni doimiy ravishda kuzatib borish va nazoratini ta'minlash ancha qiyin kechadi. Ushbu muammolar korxonada ichki va tashqi audit o'tkazish orqali hal qilinadi. Ularning o'ziga xos

xususiyatlari tavsifi 1.1.1-jadvalda keltirilgan va unda keltirilgan ichki va tashqi audit, audit va taftish o'rtasidagi tavsifiy farqlar ayrim iqtisodiy adabiyotlarda ham keltirilgan.

1.1.1-jadval

To'qimachilik korxonaida ichki va tashqi audit o'rtasidagi farqlar tavsifi va ularning o'ziga xos jihatlari

Ichki audit	Farq qiluvchi belgilari	Tashqi audit
To'qimachilik korxonai «Ichki audit» bo'limida ishlaydigan audit, hisob, nazorat va tahlil mutaxassislari tomonidan bajariladi	Amalga oshirilishiga ko'ra	O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan to'qimachilik korxonalarida tashqi audit tekshiruvini o'tkazish huquqini beruvchi sertifikat va malaka sertifikatiga ega auditorlik tashkiloti bilan tuzilgan auditorlik shartnomasi asosida, vakolat doirasida dalolat berish vazifasini bajaradigan professionallar - xolis auditorlar tomonidan amalga oshiriladi
Aynan ushbu to'qimachilik korxonai doirasida Korxonai boshqaruvi raisi va kengashi talabini bajarish, hisobot tayyorlash	Maqsadi bo'yicha	Barcha turdagi foydalanuvchilar - aktsiyadorlar, investorlar, korxonalar, iqtisodiy hamkorlar, soliq organlari va boshqalar talabini bajarish, xolis fikr bildirish, axborotlarni tasdiqlash, xulosa berish va hisobot taqdim etish
Korxonani boshqarish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda boshqaruv tomonidan belgilanadi	Vazifalarning qo'yilishi jihatidan	To'qimachilik korxonasi va auditorlik tashkiloti o'rtasida tuzilgan auditorlik shartnomasiga ko'ra aniqlanadi
Ta'sirchan, ish yuritish hajmi, mazmuni va xarakteriga hamda samaradorlikka bevosita ta'sir qiladi	Ta'sirchanlik jihatidan	Auditning sifati va ta'siriga qarab belgilanadi. Umuman, korxonai ichki audit bo'limi faoliyatiga baho beradi, korxonai moliya-xo'jalik faoliyatini ijobiy bo'lishiga qaratilgan
Korxonai muomalalari, resurslardan foydalanish, hisob, hisobot va Korxonai boshqaruvi belgilagan hisob siyosati, uning bajarilish ahvoli va umum-uslubiy qoidalarga mos kelishi tekshiriladi	Mazmuniga ko'ra	Faoliyat turi va doirasini, korxonaning hisob va hisobot ma'lumotlarining haqqoniyligini aniqlash, hisob va hisobotning holati, resurslardan foydalanish samaradorligi va ichki nazorat xatari darajasi tekshiriladi
Boshqaruvda ichki qarorlarni qabul qilish uchun faoliyat haqidagi Korxonai axborot tizimini yaratish va tekshirish	Ob'ekti bo'yicha	Korxonaning hisob tizimi va moliyaviy hisobotini tekshirish
Mustaqil tanlanadi (yoki ichki audit standartlari asosida belgilanadi)	Tekshiruv usullari jihatidan	Auditorlik faoliyatining milliy va auditning xalqaro standartlari asosida aniqlanadi
Ijro etuvchilik faoliyati	Faoliyat turi	Tadbirkorlik faoliyati

	bo'yicha	
Faqat ushbu to'qimachilik korxonaida ishning funksional va liniyal boshqarish munosabatlariga qaratilgan	Ijro etish yuzasidan	Erkin, mustaqil. Masalan, korxonamoliyaviy hisoboti elementlari bo'yichaguruhlash, taqqoslash, tanlash va boshqatahliliy amallarni qo'llab, To'qimachilik korxonadaromad manbalarini oshirishning eng muhim jihatlarni ko'rsatishga qaratilgan
Taftishdan farq qiladi va faqat shu To'qimachilik korxonai boshqaruv raisi ehtiyojini qondirish maqsadida tashkil etiladi va undan oylik ish haqi oladi	Tashkiliy jihatdan	Tashkiliy jihatdan ham, moddiy jihatdan ham mijozdan mustaqil
Korxonaboshqaruviga bo'ysunuvchi shtatdagi xodimlar	Sub'ektlari bo'yicha	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyasi va malaka sertifikat hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan to'qimachilik korxonalarida tashqi audit tekshiruvini o'tkazish huquqini beruvchi sertifikat va malaka sertifikatiga ega auditorlik tashkiloti va uning shtatida turuvchi auditor
Boshqaruvning aniq vazifalarini bajarish	Ish tashkil qilinishi jihatidan	Auditorlik tekshiruvi huquqiy me'yor va qoidalari asosida auditor tomonidan mustaqil aniqlanadi
Korxonaboshqaruviga bo'ysunish va unga qarash	O'zaro munosabatlar jihatidan	Teng huquqlik, hamkorlik, mustaqillik
Korxonaboshqaruvitomonidan belgilanadi	Kvalifikatsiya berilishi	O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan belgilanadi
SHTat jadvali bo'yicha ish haqi belgilanadi	Haq to'lash yuzasidan	Ko'rsatilgan xizmatlar uchun xaq shartnomada ko'rsatiladi
Boshqaruv oldida	Javobgarlik yuzasidan	Korxonaboshqaruv kengashi oldida, tashqi foydalanuvchilar oldida, Moliya Vazirligi va huquqni muhofaza qilish organlari oldida
Faqat boshqaruvga	Hisobot taqdim etish bo'yicha	Korxonaboshqaruviga; Auditorlik xulosasining yakuniy qismi nashr qilinishi mumkin; Biroq, boshqa analitik qismi faqat korxonaga beriladi
Aktivlarning saqlanishini joriy ta'minlash, moddiy javobgarlikni yo'lga qo'yish va tashkil etish, kamomadlar, ortiqcha xarajat va o'g'irliklar bo'yicha qarzlarni aniqlash va tugatish	Xizmat vazifasi bo'yicha	Firibgarlik, o'g'irlik holatlarini aniqlash bilan moddiy javobgarlikni yo'lga qo'yilishini nazorat qilish, qo'shib yozish va axborotdagi buzilishlar, ularning oqibati va sabablarini ochib berish, ularni bartaraf etish uchun taklif va tavsiyalar berish
Korxonafaoliyati doimo nazoratda bo'ladi va shu bois,	O'tkazilish vaqti jihatidan	To'qimachilik korxonai tashabbusiga ko'ra bir necha bor yoki 1 yilda kamida

ichki audit har doim, favqulotda ham o'tkazilishi mumkin		bir marta majburiy tarzda amalga oshiriladi
--	--	---

Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda tashqi audit tekshiruvining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, uni rivojlantirishning ob'ektiv zaruriyati, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi, xususiy mulkdorlar va iqtisodiy axborotlardan foydalanuvchilarning ko'payib borayotganligi hamda ularga ma'lumotlarning ishonchliligi va shaffoqligini ta'minlashdagi xizmatlarning sifati va miqdorini oshirishdan iboratdir.

1.2. To'qimachilik korxonalarida tashqi audit tekshiruvini o'tkazishning nazariy-huquqiy asoslari va uni takomillashtirish masalalari

To'qimachilik korxonalarida tashqi audit tekshiruvini o'tkazishni to'g'ri tashkil etilishi va samaradorligi bevosita uning huquqiy asoslariga ham bog'liq. Tashqi auditning huquqiy asoslari uni tashkil qilish va o'tkazish hamda uning natijalarini rasmiylashtirishga asos bo'ladigan yoki ushbu jarayonlarni amalga oshirish uchun huquq beradigan me'yoriy hujjatlar majmuasidan iborat.

Tashqi audit tekshiruvini o'tkazishning nazariy-huquqiy asoslari turli iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Jumladan, iqtisodchi olim R.D.Do'smurotov tomonidan O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimi va uning elementlarini quyidagi 3 pog'onaga ajratilgan:

1. O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 365-sonli «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarning rolini oshirish to'g'risida»gi Qarori.

2. Auditorlik faoliyatining milliy standartlari; auditorlik tekshiruvini o'tkazishga doir uslubiy ko'rsatmalar, tavsiyanomalar va boshqalar.

3. Auditorlik tashkilotining doimiy hujjatlar to'plami, auditorlik tekshiruvini o'tkazish rejasi va dasturi, ekspertiza hujjatlari va boshqalar.


Iqtisodchi olim H.N.Musaev esa, auditning huquqiy asoslarini tashkil etuvchi me'yoriy hujjatlarni quyidagi tartibda bir necha turlarga ajratadi:

- auditni tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy hujjatlar;
- auditni o'tkazish bilan bog'liq me'yoriy hujjatlar;
- audit natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirishga qaratilgan me'yoriy huquqiy hujjatlar;
- auditorlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bilan bog'liq me'yoriy hujjatlar.

Fikrimizcha, yuqoridagi iqtisodchi olimlar R.D.Do'smurov va V.P.Klimovichlar tomonidan tashqi audit tekshiruvini o'tkazishning nazariy-huquqiy asoslari ularning faoliyat va jarayonga ta'sir darajasiga ko'ra pog'onalarga ajratilgan. Iqtisodchi olim H.N.Musaev tomonidan esa tashqi audit tekshiruvini o'tkazishning nazariy-huquqiy asoslari uning bosqichlari bo'yicha turlarga bo'lingan. Biroq, bizningcha ularning tarkibi pog'ona va yoki turlarda emas, balki guruhlariga bo'linishi hamda ular qaysi me'yoriy-huquqiy hujjatlardan iborat bo'lishi kerakligi haqida etarli darajada mulohaza yuritilmagan. Mamlakatimizda tashqi audit tekshiruvlari davlat tomonidan tartibga solinadi va jamoatchilik tashkilotlari tomonidan muvofiqlashtiriladi. Biroq, olib borilgan ilmiy izlanish va tadqiqotlar natijasida xalqaro va mahalliy Korxonalar auditiga oid me'yoriy hujjatlar ishlab chiquvchi etakchi tashkilotlar quyidagilar ekanligiga guvoh bo'ldik (1.2.1-rasm).

Bizningcha, mamlakatimiz iqtisodiyotida bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar uning huquqiy asoslarini ham uzluksiz takomillashtirib borilishini taqozo etadi.

Tashqi auditning muhim huquqiy hujjatlaridan biri bu tomonlar o'rtasida tuzilgan tashqi audit tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi auditorlik shartnomasidir. Ushbu shartnoma uning buyurtmachisi talabi asosida tuzilib, unda auditning ob'ekti, o'tkazilish davri, tomonlarning majburiyatlari, auditorlik xizmatlarining qiymati ko'rsatilgan bo'ladi.



1.2.1-rasm. Korxonada auditorlik bo'yicha me'yoriy hujjatlar ishlab chiquvchi tashkilotlar

Shu bilan birgalikda, auditorlik tashkilotlari, to'qimachilik korxonalarini o'rtasida ma'suliyat va majburiyatlarni teng taqsimlash printsiplari asosida tuzilishini ta'minlash, shartnomaviy munosabatlarda to'lov intizomini mustahkamlash, auditorlik tashkilotlari mustaqilligini ta'minlash maqsadida auditorlik shartnomasi tarkibiga:

- auditorlik tashkiloti va Korxonaning huquqi, majburiyati va mas'uliyatiga oid ko'rsatmalar;
- shartnomani bajarish bosqichlari;
- xizmat haqining tavsiflangan miqdori kabi qoida va shartlar kiritilishi maqsadga muvofiq. Chunki, 2008 yilda jahonda sodir bo'lgan moliyaviy inqiroz ayniqsa, to'qimachilik korxonalarini ham chetlab o'tgani yo'q. Bunga, nufuzli auditorlik kompaniyalari tomonidan tashqi audit tekshiruvidan o'tgan va moliyaviy barqarorligi yuqori deb baholangan to'qimachilik korxonalarini ma'lum vaqtdan

so'ng, moliyaviy inqirozga yuz tutayotganligi sabab bo'lmoqda. Auditorlik tekshiruvini sifatsiz o'tkazganlik yoki lozim darajada o'tkazmaganlik oqibatida xo'jalik yurituvchi sub'ektga va (yoki) auditorlik tekshiruvining buyurtmachisiga etkazilgan zarar, shu jumladan, boy berilgan foyda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi shart ekanligi ko'rsatilgan, lekin amalda auditorlik tashkilotlari tuzgan shartnomalarda etkazilgan zararni qoplashi bilan bog'liq javobgarlikni o'z zimmalariga olmaganliklarini ko'rish mumkin. Bunday holatning huquqiy jihatlarini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 336-moddasida ham belgilab qo'yilgan.

Auditorga tashqi audit o'tkazish uchun «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonun, Buxgalteriya hisobining milliy standartlari va Auditorlik faoliyatining xalqaro va milliy standartlari asos bo'ladi. Tashqi audit tekshiruvi vaqtida tomonlar o'rtasida vujudga keladigan munosabat pudrat shartnomasi ko'rinishida vujudga keladigan huquqiy munosabatlardan katta farq qiladi: bunday shartnomada tomonlar tadbirkorlar kabi teng huquqlidir, lekin, auditor o'z maqomiga ko'ra mijozni (xo'jalik tizimini) nazorat qilishi lozim, bu ularning shartnomasidagi eng asosiy muhim qismidir. Ayni shu sababli, bunday munosabatlarning zarur va qat'iy nazorat qilinadigan sharti - bu tashqi auditorning tekshirayotgan mijozning ma'muriyatidan mustaqilligidir.

Umumiy xulosa shundan iboratki, audit o'tkazish uchun tuzilgan shartnoma shartlarini har tomonlama tahlil qilib, uning ayrim jihatlaridan, ayniqsa, hozirgi sharoitda xatarlarni oqilona taqsimlash uchun mumkin qadar to'la foydalanish lozim.

Audit orqali mijoz tashkilotlar faoliyati tekshirilib, ularning moliyaviy natijasiga baho beriladi. Bunday vazifa auditorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislariga ma'lum talab va ma'suliyat yuklaydi. O'zbekiston Respublikasining «Auditorning faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasida auditorga quyidagicha ta'rif berilgan: «Auditor - auditor malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir. Auditor mehnat shartnomasi bo'yicha auditorlik tashkilotining shtatida turgan bo'lsa yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma bo'yicha

faqat bitta auditorlik tashkiloti bilan ishlashi mumkin».


Iqtisodiyotda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, tez-tez qabul qilinayotgan yangi me'yoriy hujjatlar auditordan uzluksiz ravishda o'z bilimini oshirib borishini taqozo qiladi. Buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlar talabi asosida tashkil etilib borilishi, moliya-pul va soliq siyosatining takomillashuvi auditordan kasbiy bilimni doimiy ravishda chuqurlashtirib borishini talab qiladi.

Xorijiy davlatlarda auditorlik faoliyati bilan yuridik va jismoniy shaxslar shug'ullanadilar. O'zbekiston Respublikasida amal qilinayotgan qonun xujjatlariga asosan auditorlik faoliyati bilan asosan, faqat yuridik shaxslar, ya'ni auditorlik tashkilotlari shug'ullanadilar. Ushbu tashkilotlar auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish bo'yicha maxsus litsenziyaga ega bo'lib, o'z faoliyatlarini yuritish bo'yicha mustaqil hisoblanadilar.

Respublikamizda auditorlik tashkilotlari yuridik shaxs hisoblanadi va ular 2008 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 615-sonli Qarori va "Auditorlik tashkilotlari to'g'risida"gi Nizomda keltirilgan mezonlarga (shartlarga) asoslanib, qayta tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi 2000 yil 26 mayda yangi tahrirda qabul qilingan qonunda auditorlik faoliyati tarkibiga kiradigan ish turlari, auditorlik firmalarining huquqlari va burchlari hamda ularning buyurtmachilar bilan o'zaro munosabatlari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq Vazirlar Mahkamasining «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarning ahamiyatini oshirish to'g'risida»gi Qarorining qabul qilinishi, audit bo'yicha milliy standartlarning ishlab chiqilishi mamlakatda auditorlik faoliyatining takomillashishga olib keldi. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan 2000 yil 25 sentyabrda 68-son bilan tasdiqlangan «Auditor malaka sertifikatini berish tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq, auditorlik malaka sertifikatini berishning yangi tartibi o'rnatildi. Biz, quyidagi rasm orqali bunga ma'lum o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni taklif qilamiz (1.2.2-rasm).



1.2.2-rasm. Auditorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi

Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan 2000 yil 24 iyundagi 403-sonli tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Korxonalarida audit tekshiruvlarini o'tkazish to'g'risida»gi Nizomning 2-5-bo'limlariga asosan auditorlik tashkilotlari Korxonalarda tashqi audit tekshiruvlarini o'tkazish huquqini beruvchi malaka sertifikatlarini olish va malaka imtihonlarini topshirish uchun arizachi tomonidan Moliya Vazirligika ariza topshiriladi. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:

- Moliya vazirligi tomonidan auditorga berilgan malaka sertifikatining notarius tasdiqlagan nusxasi;

- oliy ma'lumoti to'g'risidagi diplom va mehnat daftarchasining notarius tasdiqlagan nusxalari;

- shaxsiy varaqa (2 dona fotosurat bilan birga);

- korxonada auditori malakasini olganligini tasdiqlovchi hujjat nusxasi.

Da'vogarlar malaka imtihonlarini Moliya Vazirligida topshiradilar. Uni topshirish tartibi, shakli va mazmuni Moliya Vazirligi tomonidan belgilanadi.

Korxonalarda audit tekshiruvlarini o'tkazish huquqini beruvchi sertifikat olish uchun auditorlik tashkiloti tomonidan Moliya Vazirligika ariza taqdim etiladi.

Komissiya a'zolari 7 kishidan iborat bo'lib, ularning tarkibiga Komissiya raisi ham kiradi. Komissiya tarkibi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi Raisi buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Audit o'tkazish ma'lum tartib-qoidani va ketma-ketlikni talab qiladi. Ushbu tartib-qoidalar audit standartlarida o'z ifodasini topdi.

Audit standartlari – bu barcha auditorlar tomonidan amal qilinadigan va faoliyatlarida qo'llaniladigan auditga oid umumiy mazmundagi me'yoriy talablarning majmuasidir.

Auditorlik faoliyatida ushbu standartlarga to'liq amal qilishi audit sifatining oshishiga olib keladi. Audit standartlarining mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi: auditorlar va auditorlik tashkilotlariga bo'lgan talab, auditni o'tkazilishi tartibi, audit natijalarini rasmiylashtirish qoidalari va boshqa masalalar. Ayrim iqtisodiy adabiyotda audit standartlari quyidagicha guruhlangan: auditning tashkil

qilish bilan bog'liq bo'lgan standartlar; auditni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan standartlar; auditni natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan standartlar.

Audit standartlari bo'yicha ayrim mutaxassis olimlarning fikrlari maxsus adabiyotlarda quyidagicha ifodalangan. Iqtisodchi olim V.Podolskiy fikriga ko'ra, ichki audit standartlari har bir auditorlik tashkilotining o'zida ishlab chiqiladi. Tashqi audit standartlari esa xalqaro va mamlakatlar miqyosida maxsus tashkilotlar tomonidan tayyorlanadi. Iqtisodchi olim V.Suyts esa, audit standartlarini xalqaro, milliy va firma standartlariga bo'lib, ushbu standartlar ham xalqaro darajada, ham mamlakat miqyosida, ham alohida auditorlik firmalari tomonidan ishlab chiqilishini e'tirof etgan. Iqtisodchi olim Z.T.Mamatov auditorlik standartlari haqida fikr bildirib, «u auditorlar tayyorlash uchun mo'ljallangan barcha dasturlarning va auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun «Audit» bo'limi bo'yicha malaka imtihonlari dasturlarining asosidir», deb ta'kidlaydi va uni uchta: auditning umumiy standartlari, ishchi standartlari va hisobot standartlariga bo'ladi. Biroq, hozirgi kunda auditorlik standartlarining yana ikki guruhi: firma ichki standartlari va guvohlik beruvchi standartlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Audit standartlarining alohida auditorlik firmalari, mamlakat ichida va xalqaro darajada tayyorlash, bizning fikrimizcha audit jarayoni va uning natijasi samarasini oshishiga olib keladi, mavjud ilg'or usullardan keng foydalanish imkonini beradi.

Xalqaro amaliyotda ellikka yaqin audit standartlari qo'llanilib kelayotganligi manbalardan ma'lum. Ularda auditni tashkil qilish tartibi, audit o'tkazuvchi shaxslarga qo'yiladigan talablar, auditorlik hisoboti va xulosalarining mazmuniga tegishli umumiy qoidalar ifodalangan. O'zbekistonda qo'llanilayotgan auditorlik faoliyatining milliy standartlari bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillariga asoslangan. Ularning soni bugungi kunda 21ta bo'lib, iqtisodiy o'zgarishlar e'tiborga olinib, son jihatdan ko'payib, sifat jihatdan takomillashib bormoqda. Auditorlik faoliyatining milliy standartlari auditning xalqaro standartlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, doimiy ravishda takomillashtirilmoqda.

Auditorlik tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan va chiqilayotgan ichki standartlar auditorlarning ijodiy faoliyat natijalari bo'lib, ushbu tashkilotning intellektual mulki hisoblanadi. Ichki standartlarning bir qismi ishlab chiqilgan, boshqalari tayyorlash bosqichida. Standartlarni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan hujjatlarda standartlarni qo'llash, standartlar asosida auditorlik faoliyatini tashkil etishga doir ma'lumotlar bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi qonunchilik tizimini ham barqarorlashtirishni talab etadi. Shu bois, auditorlik faoliyatini ham nazardan qoldirmaslik lozim. Bu borada me'yoriy hujjatlarning ayrim talablariga biroz qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Zero, ular ushbu sohadagi oqsab kelayotgan masalalarning echimini topishda o'zining ijobiy tomonlarini ko'rsatadi, degan fikrdamiz.

II - BOB. TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA TASHQI AUDIT TEKSHIRUVI O'TKAZISHNI AMALDAGI HOLATI VA USLUBIYOTINING TAHLILI

2.1. O'zbekiston Respublikasida to'qimachilik korxonalarida tashqi audit tekshiruvini tashkil qilishning xususiyatlari

Auditorlik tekshiruvini o'tkazishni tashkil qilishda auditorlik tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan ishchi hujjatlari katta ahamiyat kasb etadi. To'qimachilik korxonalarida tashqi audit tekshiruvini o'tkazishni tashkil qilishning xususiyatlari va uslubiyotini tahlil qilar ekanmiz, uning amaldagi uslubiyoti va mexanizmini takomillashtirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bu boradagi ilmiy izlanishlar natijasida, bizningcha, tashqi auditni ishchi hujjatlar va o'tkazish metodikasi bo'yicha tahlil qilish zarur.

Korxonalarda tashqi audit tekshiruvini tashkil qilish amaliyotida ishchi xujjatlarni rasmiylashtirishda quyidagi vazifalar hal etilishi lozim:

1. Korxonada biznes jarayoni tavsifini to'liq o'rganish va amaldagi holatiga baho berish;
2. Korxonada mahsulotlarini qayta ishlash sxemasini yaratish;
3. Ichki ishchi xujjatlarni jarayonda qatnashuvchilar o'rtasida o'zaro kelishgan holda ishlab chiqish;
4. Hujjatlarni jarayon qatnashuvchilariga O'zbekiston Respublikasi, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi qonunchilik normalariga, standartlarga muvofiq yo'naltirish;
5. Korxonada boshqaruvi tomonidan tasdiqlash.

Ammo, ishchi xujjatlarning me'yoriy huquqiy bazasini yaratish bosqichida quyidagi muammolar paydo bo'ladi:

1. Ichki nazorat xodimlarining qo'shimcha amallarni bajarishga noroziligi;
2. Korxonaning barcha moliya-xo'jalik muomalalari aks etgan xujjatlarni elektronlashmaganligi.

Shuningdek, tekshiruvni o'tkazishga rozilik uchun yoziladigan majburiyat xati ham audit ishchi hujjatlari tarkibiga kiradi. Majburiyat xati auditorlik

faoliyatining qonunchilik hujjatlariga asosan tayyorlanadi. Hozirgi iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish amalga oshirilayotgan bir paytda ushbu majburiyat xatining maqsadi, tekshiriluvchi mijoz va auditorlik tashkiloti o'rtasida tekshiruvga rozilik berish bitimini tuzishda huquq va majburiyatlarni belgilash, o'rnatish bilan izohlanadi. Albatta, majburiyat xati asosan mijozga rasmiy auditorlik xizmatini ko'rsatishni so'rab, taklif etib yoziladi. Faqat, shundan keyingina auditor mijozning faoliyati bilan tanishuvni boshlaydi, ya'ni dastlabki rejalashtirishni amalga oshiradi. Dastlabki rejalashtirish auditorga oldinda turgan ish hajmini, uning taxminiy qiymatini baholash va majburiyat xatini aniq va puxta bo'lishini ta'minlaydi. Majburiyat xatining shakliy ko'rinishi va uning tarkibida quyidagilar nazarda tutiladi:

- Auditorlik tekshirishning shartlari;
- Auditorlik tashkilotining majburiyati;
- Mijozning majburiyatlari.

Bulardan tashqari, majburiyat xati tarkibida audit o'tkazish uchun asos bo'ladigan huquqiy hujjatlardan ilovalar, parchalar (Faoliyatga tegishli O'zR Qonunlari, VM Qarorlari, yo'riqnomalardan) keltirilishi lozim. Ayrim hollarda Xalqaro Hisob Standartlari Qo'mitasi (IASB) tomonidan chiqarilgan Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari, Xalqaro Buxgalterlar Federatsiyasi (IFA) tomonidan chiqarilgan Auditning xalqaro standartlaridan ham foydalanilishi mumkin. Qoidaga ko'ra auditorlik tashkilotlariga qanday majburiyat yuklanishi majburiyat xatida keltiriladi. Majburiyat xatida auditorlik tashkilotlarining ish natijalari bo'yicha beradigan hisobotlari nazarda tutiladi. Bizningcha, ushbu xatda auditorlik tashkilotiga uning ko'rsatayotgan xizmatlari, tijorat sirining hamda buxgalteriya hisobi va hisobotida aniqlangan xato va noaniqliklarning oshkor etilmasligi haqidagi ma'lumotlar majburiyat sifatida aks etishi lozim. Bundan tashqari, tekshiriluvchi mijozga esa hisob va hisobotning to'liqligi hamda ishonchliligi, auditorlarga barcha kerakli axborotga ega bo'lishida ruxsat berilishi va qarshilik ko'rsatmaslik hamda hamkorlik asosida ko'maklashishni ta'minlash haqidagi majburiyatlar yuklatilishi lozim. Lekin, kelgusi yilda mijozning

maqsadiga ko'ra tekshiruvda yangi majburiyatlar yuklatilishi mumkin, ish sharoiti yana bir marta kelishib olinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda, albatta, yangi shartnoma imzolanadi.

Auditorlik tashkilotlari tomonidan to'qimachilik korxonalarida tashqi audit tekshiruvini o'tkazish metodikasi, jumladan, usullarini takomillashtirishda quyidagi bir qator omillarni hisobga olishi kerak:

1. Mijoz Korxonada faoliyatining ko'lami;
2. Risk turlari (iqtisodiy, siyosiy, moliyaviy, soliq, investitsion, audit);
3. Mijoz Korxonada faoliyatining xususiyatlari.

Metodikani takomillashtirishda mijoz korxonada faoliyatiga kompleks yondashish zarur. Bunda, korxonada faoliyatini baholashda barcha omillarni hisobga olish kerak. Masalan, korxonada bilan shartnomani tuzishdan tortib, toki audit natijalarini rasmiylashtirishgacha, hatto, kamchiliklarni tuzatishga doir taklif va tavsiyalarni berishda ham ularning barcha xususiyatlarini bilish talab etiladi. Bundan tashqari, metodikani takomillashtirishda tashqi audit tekshiruvini o'tkazishning sifatini ko'tarish birinchi galdagi vazifa bo'lib hisoblanadi. Bizningcha, korxonada tashqi auditini o'tkazuvchi har bir tashkilot 4-AFMS «Auditorlik tashkilotlarining ichki standartlariga qo'yiladigan talablar» asosida quyidagi eng asosiy o'z firma ichki standartlarni ishlab chiqishlari zarur deb hisoblaymiz:

1. FIS-1. Korxonada moliyaviy hisoboti bo'yicha auditorlik xulosasi;
2. FIS-2. Auditorning yozma axboroti (hisoboti);
3. FIS-3. Tashqi auditni hujjatlashtirish;
4. FIS-4. Tashqi auditni rejalashtirish;
5. FIS-5. Tashqi audit ob'ektlari bo'yicha auditorlik tanlash;
6. FIS-6. Tashqi audit ob'ektlari bo'yicha muhimlikni baholash;
7. FIS-7. Auditorlik riski va ichki nazorat tizimini baholash.

Korxonada moliyaviy hisobotini tashqi audit tekshiruvidan o'tkazishning maqsadi quyidagilardir:

- Moliyaviy hisobot shakllarining haqqoniyligini tasdiqlash yoki unda aks

etgan ma'lumotlarning haqqoniy emasligini konstatatsiyalash;

- Buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy hisobotni tuzish hamda aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapitalni baholash metodologiyasini tartibga soluvchi amaldagi qonunchilik va boshqa me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilinayotganligini nazorat qilish;

- Tekshirish davri bo'yicha Korxonada faoliyati yuzasidan daromadlar va xarajatlar, moliyaviy natijalar u to'g'risidagi hisobot va buxgalteriya hisobida aniq, haqqoniy va to'liq aks etganligini tasdiqlash;

- O'zlik va aylanma mablag'lar, moliyaviy zahiralari va qarz mablag'laridan samarali foydalanish hisobiga zahiralarning paydo bo'lish imkoniyatini ko'rsatish va h.k.

Tekshirish jarayonida Korxonada moliyaviy hisobotining asosiy 3 ta shaklini to'g'ri tuzilganligiga e'tibor qaratiladi. Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda auditor soliqqa tortiladigan foyda va balans foydasi hisob-kitobining to'g'riligini aniqlaydi.

Tashqi audit tekshiruvini o'tkazish uslubiyotini o'rganish asosida uni takomillashtirish vazifasi - korxonalar moliyaviy hisobotini tashqi audit tekshiruvidan o'tkazishning maqsadidan kelib chiqqan holda, auditda qo'llaniladigan usullarni tanqidiy tahlil qilish bilan izohlanadi. Yuqoridagilardan tashqari auditda qo'llaniladigan metodlar ham katta ahamiyat kasb etadi. Hisobotning alohida ko'rsatkichlarini taqqoslash maqsadida ikkinchi guruh usullari sifatida analitik amallarni kiritish mumkin.

Uchinchi guruh usullariga audit ob'ektlarining o'tgan, joriy va istiqboldagi holatini baholash hamda qiyoslash jarayonini mantiqiy tugallash bilan izohlash mumkin. Bunda, buxgalteriya hisobida aks ettirilmagan, jumladan, moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish sanasidan so'ng sodir bo'lgan hodisalarga bog'liq bo'lgan iqtisodiy axborotning haqqoniyliqi, moliya-xo'jalik muomalalarining qonuniyligi va maqsadga muvofiqligi hamda resurslar holati baholanadi.

Yuqoridagilardan, auditning usullarini jami ikki tarkibga bo'lib izohlash mumkin:

1. Umumiy usullar;
2. Xususiy usullar.

Umumiy usullarga analiz va sintez, induksiya va deduktsiya, abstrakt tafakkur, guruhlash, qiyoslash, tanlab kuzatish, iqtisodiy tahlil kabilarni kiritish mumkin. Bundan tashqari, auditor yuqoridagilarga o'xshash boshqa fanlarning ham metodologik qoidalari, uslub va usullaridan foydalanishi mumkin.

Auditning xususiy usullarini shartli ikki guruhga bo'lish mumkin: auditni tashkil etishni to'liq usuli va schyotlar qoldig'i bo'yicha muomalalarni tekshirish usuliga.

Auditni tashkil etishni to'liq usulini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- yoppasiga tekshirish;
- tanlab tekshirish;
- xujjatli tekshirish;
- haqiqiy ma'lumot(fakt)lar asosida tekshirish;
- analitik tekshirish;
- kombinatsiyalashgan tekshirish.

Auditorlik dalillarini to'plashda tekshiruvga jalb qilingan xo'jalik muomalalari hajmiga muvofiq bir yoki bir necha tahliliy amallar qo'llanilishi mumkin. Bizningcha, 13-AFMSdan farqli ravishda quyidagi tahliliy amallarni ham qo'shimcha ravishda qo'llash maqsadga muvofiq:

- mijoz arifmetik hisob-kitoblarini qayta hisoblash; Bu amal hujjatlar manbasi va buxgalteriya yozuvlari o'rtasidagi arifmetik aniqlikni tekshirishda qo'llaniladi. Ayniqsa, auditor hisob-kitobi bilan buxgalter hisob-kitobi arifmetikasidagi farqni (xato va kamchilikni) topishga xizmat qiladi.

- alohida xo'jalik muomalalari hisobi bo'yicha qoidalarga rioya qilinganligini tekshirish; Bu amal yordamida buxgalteriyada bajarilgan hisob ishlari ustidan nazorat qilish mumkin.

- tasdiqlash; Bu amal pul mablag'lari, hisob-kitoblar va debitor va kreditorlik qarzlari schyotlari hisobidagi ma'lumotlarning haqiqiyligiga ishonch hosil qilish maqsadida uchinchi (mustaqil) shaxslar tomonidan tasdiqlanishi shart

ekanligi uchun bajariladi. Bunda, mijoz sub'ekti rahbariyati nomidan uchinchi shaxslarga yozma so'rov yuboriladi va unda kerakli axborotlarni bevosita auditorlik tashkilotiga yuborish so'raladi.

- xo'jalik sub'ekti va uchinchi shaxslar rahbariyati, xodimlardan og'zaki savolnoma o'tkazish; Bu amal tashqi audit tekshiruvini o'tkazishning barcha bosqichlarida amalga oshirilishi mumkin. Og'zaki savolnoma natijalari albatta ma'lum hujjatda, qachon, kim tomonidan o'tkazilganligi, qaysi hodim javob berganligi aniq ko'rsatilishi kerak. Bu aslida, mijozning barcha moddiy javobgar shaxslari va xodimlari uchun auditorlik tashkiloti mutaxassislar tomonidan oldindan tayyorlangan shablon, blanka ko'rinishida bo'ladi, unda faqat ha yoki yo'q yohud boshqa izohlar aks ettiriladi. Chunki, o'tkazilgan savol-javob rejadagi keyingi vazifani bajarishni yengillashtiradi.

- hujjatlarni tekshirish; Hujjatlarni tekshirish uch shaklda amalga oshiriladi:

1. Formal tekshirish. Bunda, hujjatlarda barcha rekvizitlarning to'liq to'ldirilganligi va to'g'riligi; hujjat matni va raqamlarida kelishilmagan to'g'rilash yoki o'chirib yozishlarning mavjudligi; hujjatda mansabdor yoki moddiy javobgar shaxslar imzolarining haqiqiyliги kabilar tekshirilishi tushuniladi.

2. Arifmetik tekshirish. Bunda, barcha muomalalar bo'yicha hujjatlardagi hisob-kitoblarning to'g'riligi tekshiriladi (birlamchi hujjatlar, hisob registrlari va hisobot shakllarida keltirilgan jami summaning to'g'riligi).

3. Mohiyatiga ko'ra tekshirish. Bunda, amalga oshirilgan muomalalarning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligi hamda tegishli schyot va hisobot moddasiga olib borishning to'g'riligi tekshiriladi.

- kuzatish. Auditor yanada ishonchli dalil olishi uchun bu amal qo'llaniladi. Masalan, xo'jalik muomalasini tegishli tartibda buxgalteriya hisobida aks etganligini aniqlash uchun, auditor, dastlabki hujjatni tanlab olib, hisob tizimlari bo'yicha undagi raqamlarni ketma-ketlikda ifoda etilganligini kuzatib boradi.

- skanerlash. Bunda, hujjatlar tez ko'z yugurtirish, varaqlash asosida tekshiriladi. Uni amalga oshirish bosh kitob yoki daftarning kredit yozuvlarini, vedomost va analitik schyotlar bo'yicha kredit oborotlarini tekshirishdan

boshlanadi. Skanerlash amali tanlanma tekshiruvda keng qo'llaniladi.

- testlash. Bunda, mijozning barcha tekshiruv ob'ektlari bo'yicha auditorlik tashkiloti mutaxassislarini tomonidan oldindan puxta ishlangan test asosida tekshirish o'tkaziladi. U tekshirishda ham richag, ham dalil vazifasini o'taydi.

Korxonada faoliyati, uning moliyaviy holatiga baho berishda, iqtisodiy tahlil, analiz va sintez usuli, korrelyatsiya va regressiya usuli, prognozlash (istiqbolni prognozlash, boshqaruvni iqtisodiy samarali boshqarishni prognozlash, marketingni prognozlash, koeffitsientlarni prognozlash) usullaridan foydalaniladi.

Tashqi auditda analitik yondashuv to'g'risida shuni alohida qayd qilish lozimki, bu ko'proq audit va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida ishlatilsada, ushbu usullar haqida biz milliy standartlarda ham batafsil bayon keltirishimiz lozim. Chunki, iqtisodiy tahlil usullarining asosiy vazifasi har qanday xo'jalik jarayonlari va ularni audit tekshiruvidan o'tkazishda ma'lum rivojlantirish tendentsiyasini belgilashdan iborat. Bundan tashqari, iqtisodiy tahlil usullaridan statistik tahlilning qo'llanilishi o'tkaziladigan tekshiruvlarning tahlilini yuqori ilmiy darajada tashkil qilishga va qaror qabul qilishda juda ob'ektiv va ishonchli ma'lumotlar olish imkoniyatini yaratadi.

Korxonada auditda arifmetik-eksperimental hisob-kitoblar, proporsiyaviy hisoblash usullari, grafik metodlari ham audit jarayonida qo'llaniladi.

Yuqoridagi tekshiruvning har bir usuli ma'lum bir mazmun kasb etadi. Ulardan, grafiklash metodi hisobot davrlari bo'yicha o'zgarishlarni ko'rsatish va bu bo'yicha ma'lum ijobiy xulosa chiqarish maqsadida qo'llanilsa, arifmetik metod bu hisob-kitoblarning ko'pligi bo'is, ularni operativ hisoblash imkoni bo'lmagan holda foydalanishga tavsiya etiladi.

Fikrimizcha, ushbu usullar ko'proq yirik Korxonalarda hisob-kitoblarni soddalashtirish, qolaversa, tez (kam vaqt talab etilganda) hamda aniq natijaga erishish maqsadlarida foydalanishga joriy etiladi.

Korxonada moliya-xo'jalik faoliyati yuzasidan sodir etilgan muomalalarni tekshirishda moliyaviy hisobot elementlarini tanlab tekshiradi. Bunda tanlash usuli qo'llaniladi. Tanlashning turli usullari mavjud. Masalan: statistik tanlov, monetar

tanlov, an'anaviy tanlov, stixiyali, betartib tanlov usullari. Ularning har birini yana tarkiblash mumkin. Chunki, statistik tanlov o'z ichiga arifmetik, geometrik, o'rtacha tortilgan, xronologik, o'sib boruvchi, kamayib boruvchi, tasodifiy tanlash usullarini oladi.

Auditorlik faoliyatining statistik asoslari mohiyati haqida iqtisodchi olim Mamatov Z.T. fikr bildirib, quyidagilarni ta'kidlaydi: «Xalqaro amaliyotda ko'p auditorlik tekshirishlar odatda turli tanlov bo'yicha o'tkaziladi. Ko'pincha ular kompyuter tanlovi bo'lib, dasturiy ta'minotga asoslanadi. Tanlash usulini qo'llanilishi auditorlarga auditorlik faoliyatida ilmiy asosda ishlashga yordam beradi. Auditorlar tanlovning turli usullaridan foydalanadilar. Ularning orasida asosiylari sifat va miqdoriy tanlov usullaridir. Tanlab kuzatishning ana shu usullarini har biri bo'yicha nostatistik yoki statistik tanlovni tashkil etish mumkin. Xorijiy auditorlar tajribasida 20-asrning oxirlarida miqdoriy tanlov orasida monetar tanlab kuzatish alohidalashgan. Bu usul sifat va miqdoriy tanlab kuzatish usullarini qo'shib olib borishga imkon beradi. Chunki, tanlov turlari ichida eng asosiylari sifatli atributli tanlab kuzatish, miqdoriy tanlab kuzatish, monetar tanlab kuzatish usullaridir».

Auditor moliyaviy hisobotni baholashda eng oddiy statistik usullarini qo'llashga qaror qilganda, ular ba'zan mutloq boshqacha statistik uslubiyatga asoslanadi. Masalan, tanlov natijalarining aniqligi elementlarning tanlash sxemasiga bog'liq. Chunonchi, auditor takrorlanadigan tanlov yoki takrorlanmaydigan tanlovni yaxshi farq qilishi va amalda yaxshi qo'llay olishi lozim. Takrorlanadigan tanlovdan ko'pincha usullar tasodifiy tanlanganda foydalaniladi, takrorlanmaydigan tanlov muayyan harakat bilan bog'liq mexanik tanlovda qo'llaniladi.

Tashqi audit chog'ida statistik tanlash usullarini qo'llashning afzalliklari uni quyidagilarga imkon berganligi bilan izohlash mumkin:

1. Natijalarning talab qilingan aniqligini ta'minlaydigan tanlov hajmini hisoblab chiqish;
2. Tanlov xatosi darajasini boshqarish;

3. Tanlov natijalari ekstrapolyatsiyasi aniqligini belgilash;
4. Tanlovni to'g'ri tashkil etish va o'z vaqtida ilmiy asoslangan auditorlik dalillarini olish.

Auditorlar statistik tanlov yordamida aniqlangan xatolar darajasini kamaytiradilar, ularni kam darajaga tushiradilar, biroq, audit riskini to'la bartaraf eta olmaydi, chunki kuzatish yalpi emasligidir. Shu bois, tashqi auditda statistik yoki monetar tanlash usulni qo'llash barcha muammoni echimini topib bermaydi. Chunki, bunda asosan inson omili, ya'ni auditorning professional fikrlash va mulohaza qilish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Ta'kidlash joizki, hatto, tekshiruvda kompyuter dasturlari yordamida statistik usullar qo'llanilganda ham uni inson tahlil qiladi.

Auditda riskni baholash ham muhim. Chunki, uning hisob-kitobida Korxonasiyosiy, moliyaviy, iqtisodiy, investitsion, audit risklarini va faoliyat xususiyatlarini e'tiborga olishi kerak. Shundan, faqat audit riski standartlariga muvofiq, uchta tarkibiy qismdan iborat: nazorat riski; ichki xo'jalik riski; aniqlanmaslik riski.

Nazorat riski Korxonaning moliyaviy hisobotida kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlanmaganligi yoki bartaraf etilmaganligi va oldi olinmaganligini korxonaning nazorat vositalari yordamida topiladi. Masalan, Korxonasi ichki audit bo'limi hisoboti.

Korxonada auditorlar tomonidan taxliliy amallar yordamida baholangan nazorat va ichki xo'jalik riski asosida aniqlanmaslik riski topiladi. Aniqlanmaslik riski quyidagi omillarga ko'ra paydo bo'ladi:

1. Korxonasi moliyaviy hisobotini u yoki bu bo'limini har hil hajmda tekshirish (auditorlik tanlash hajmiga muvofiq);
2. Tashqi audit tekshiruvini o'tkazishda qo'llanilgan turli tarkibli auditorlik amallari va boshqalar.

Bundan tashqari, tanlab tekshirishda korxonasi moliyaviy hisobotining barcha elementlari emas, balki, faoliyatda muhim ahamiyat kasb etuvchi moliyaviy hisobot elementlari tanlansa maqsadga muvofiq.

Ta'kidlash joizki, tashqi audit tekshiruvini o'tkazish jarayonida hujjatlarni tanlash hajmiga bir necha xil omillar ta'sir etadi (2.1.1-rasm).

Ta'sir etuvchi omillar	Tanlash hajmiga ta'siri
Korxonada ichki nazorat tizimiga ishonch	Ishonch yuqori bo'lsa, tanlash miqdori kam bo'ladi
Auditor tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolikning belgilangan darajasi	Tanlash miqdori ko'p bo'lsa, yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolik kam bo'ladi
Kutilayotgan xatolik darajasi	Tanlash miqdori kam bo'lsa, kutilayotgan xatolik kam bo'ladi
Ishonchlilik darajasi	Tanlash miqdori ko'p bo'lsa, ishonchlilik darajasi yuqori bo'ladi
Guruhlash (stratifikatsiyalash)ning qo'llanilishi	Guruhlash (stratifikatsiyalash) qo'llansa, tanlash miqdori kamayadi
To'plam birliklari raqami	Tanlash miqdori ko'p bo'lsa, to'plam birliklari ko'p bo'ladi (tanlash hajmi katta bo'lsa, to'plam muhim emas).

2.1.1-rasm. To'qimachilik korxonalarini tashqi audit o'tkazishda tekshiriladigan hujjatlarni tanlash hajmiga ta'sir etuvchi omillar

Korxonada moliyaviy hisoboti, ya'ni, balans moddalarini qiymati bo'yicha guruhlashda aytaylik, Korxonada foydasi hisobini tekshirishda schyotning umumiy qiymati 4000000 so'm, lekin, oltita schyot 100000 so'm va bundan kattaroq jami 1000000 so'm qoldiqqa ega. Bu oltita schyotni alohida modda sifatida qarash kerak, chunki, auditor tomonidan har bir schyot bo'yicha yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolikni belgilangan darajasidan yuqori ekanligi, ya'ni, 80000 so'm ekanligi topilgan. Demak, ularni bosh to'plamdan chiqarib tashlash va alohida tekshirish kerak.

Bundan tashqari, bosh to'plamni bir necha kichik to'plamchalarga bo'lib guruhlash ham qo'llanilishi mumkin. Bunda, to'plamni 750000 so'mga teng va undan yuqori qoldiqqa ega miqdordagi hujjatlarga kiruvchi to'rtta guruhga bo'lamiz. Natija quyidagi 2.1.1-jadvalda keltirilgan:

2.1.1-jadval

Moliyaviy hisobot elementlarini tanlashda guruhlash va monetar tanlash usulining qo'llanilishi

Guruhlar	Schyotdagi qoldiq	Schyotlar soni	Umumiy summasi, so'm.	Tanlash miqdori (elementlar soni)
1	> 100 000	6	1000 000	6
2	6250-99999	80	754 568	22
3	3440-6249	168	754 508	22
4	1650-3439	342	750 412	23
5	1-1649	910	740 512	23
Jami		1506	4000 000	96

Yuqoridagi jadvalning oxirgi qatorida tanlashning taqsimotida 90 ta schyotdan iborat yuqorida aniqlangan to'rt guruh ko'rinib turibdi. Ammo, har bir guruh, yuqori qoldikli schyotdan tashqari, umumiy pul qiymatining $\frac{1}{4}$ qismiga yaqin hajmi egallagan. Bu turdagi guruhlash faqat oddiy vaziyat uchun to'g'ri keladi, chunki kichik qoldikli schyotlarga qaraganda katta qoldiqqa ega schyotlardan aniqlanishi mumkin bo'lgan xatolik miqdori ham yirik bo'ladi. Shu bois, hujjatlarni monetar tanlashda qoldig'i yuqori bo'lgan schyotlardan (80dan 22) ko'p, qoldig'i kichik bo'lgan schyotlardan (910dan 23) kam hujjat olinadi.

Bizningcha, korxonani tashqi auditdan o'tkazishda hujjatlarni tanlash vaqtida guruhlash va monetar tanlash usulining afzalliklari hamda imkoniyatlarini qo'llash uchun qo'shimcha talab etiladigan ish haqi xarajatlarini ham hisobga olishi kerak. Fikrimizcha, uni kompyuter texnikasidan foydalanib, aniq mezonlar asosida xronologik tartibda va sodir bo'lish sanasiga ko'ra guruhlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bizningcha, auditorlik riski va muhimlik ko'rsatkichlari auditorlik tanlovi bilan uzviy bog'liqlikda aniqlanadi. Ularni aniqlash bo'yicha o'z usulimizni keltirishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Demak, quyidagicha: auditor tekshiruvda tekshiriluvchi sub'ektning jami hujjatlari - 1000ta birlik hujjatdan 100tasini tanlab olib, tekshirsa va bu hujjatlar bo'yicha yakuniy, natijaviy hisobot tuzish hamda xulosalar chiqarishda jami hujjatlarga nisbatan foydalansa, ya'ni ekstrapolyatsiya qilsa, demak auditor riski= $1000-100/1000=90$ % bo'ladi. Chunki,

auditor bunda 10% ma'lumotdan foydalangan, xolos. Bizningcha, auditor mijozning kamida 85-90% ma'lumotlari bilan yaqindan tanishib chiqishi, kerak bo'lsa hisob-kitobida aynan shu ma'lumotlarga asoslanishi kerak. Faqat shundagina tekshiruv natijalari ishonchli bo'lishiga erishish mumkin. Ta'kidlash joizki, xalqaro auditorlik tashkilotlari amaliyotda audit riskining eng maqbul chegarasi 15% qilib belgilangan.

Muhimlilik ko'rsatkichi esa audit riskiga teskari mutanosiblikda ekanligini izohlash zarur. Audit riski katta bo'lsa, muhimlilik darajasi past bo'ladi va aksincha.

Monetar tanlab kuzatish etarlicha keng tarqalgan bo'lsa ham, auditning yangi statistik uslubidir. Monetar tanlab kuzatish (MTK) "Deloitte Haskins and Sells" auditorlik kompaniyasi mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan. MTK auditorlar uchun qulay bo'lgani uchun uni so'nggi chorak asrda ko'p auditorlar o'zlashtirganlar. Chunonchi AQSH, Kanada va boshqa mamlakatlarda auditorlar qisqartirilgan DUS (Dollar-unit Sampling) dan foydalanadilar. Bu taxminan, «Kuzatish birligiga bir dollardan tanlash» deb tarjima qilinadi. DUS monografik tadqiqotlari ham mavjud. Biz bu usulning eng maqbul xalqaro va o'zbekcha nomi – monetar tanlov, monetar tanlab kuzatish (qisqartirilgan–MTK) deb hisoblaymiz. Audit uchun MTKning afzalligi, ayniqsa, tekshirilayotgan assimetrik jamlamada (tuzilishi bir xil bo'lmagan jamlama) aniq ifodalanadi. Auditorning MTK dan foydalanishi an'anaviy intervalli tanlab kuzatishdan foydalanish chog'ida yuzaga keladigan ko'p muammolarni bartaraf qiladi. Bir tomondan, monetar tanlov auditorga sifatli (atributli) tanlab kuzatish uslubiyatidan foydalanishga imkon beradi. Ikkinchi tomondan, tanlovni shakllantirish ham, tekshirilayotgan jamlamalarning qiymati asosida (miqdoriy tanlab kuzatish usuli bo'yicha) baholashga imkon beradi.

MTK qo'llanilganda auditor tekshirilayotgan jamlamani undagi elementlarning pul birligida ifodalangan miqdori bo'yicha guruxlarga ajratadi va xatolarning takrorlanishiga qarab emas, balki xato miqdori asosida xulosa chiqaradi. So'ngra auditor tekshirilayotgan jamlamadagi pul birliklariga (masalan,

evro, dollar, funt-sterling, rubl va boshqalarga) belgi qo'yib chiqadi. Ana shu belgili pul birliklari tanlab kuzatiladigan alohida birliklar sifatida qabul qilinadi.

Chunonchi, har qanday schyot bo'yicha, masalan, 200 ming so'm miqdorida o'tgan har qanday yakunlovchi miqdorning har biri 200 ming birlik deb qaraladi. Bizning misolimizda 2 mln. so'm miqdoridagi muddati o'tgan debitorlik qarzi bo'yicha auditor har biri 1 ming so'mlik 200 ta tanlab kuzatish birligini tekshirishi mumkin. Bunda 1 ming so'mlik har qanday birlik bir so'mlik har qanday birlikka qaraganda tanlovga tushishga ming baravar ko'p imkoniyatga ega bo'ladi.

Auditorning korxonalar hisobot ko'rsatkichlarida asl maqsadga erishuv nuqtai nazaridan aniq skalyar bahosini olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu o'zgaruvchan me'yornlarni sintezlash va noparametrik statistikani (daraja korrelyatsiyasini) qo'llash asosida amalga oshiriladi, bunday yondashuv amalda ko'p marta sinab ko'rilgan.

Bizningcha, xo'jalik tizimi rivojlanishining ko'rsatkichlarini auditorlik-statistik tahliliy amallar bilan baholash vositalarini yanada takomillashtirish va uni yanada samarali qilish mumkin. Tadqiqotchilar tomonidan umuman, usullarni qiyoslash hozirning o'zidayoq xo'jalik tizimlarining rivojlanish koeffitsientidan amalda foydalanishga oid bir qancha qiziqarli masalalarni o'rta qo'yishga imkon beradi.

Avvalo bu baholarni amaliyotga joriy etish iqtisodiy faoliyat ko'rsatishning maqbulligini aniqlaydigan global va mahalliy me'zonlarni kelishib olish masalasi bilan bog'liqdir. Demak, bu boradagi optimal rivojlantirishning bosqichma-bosqich iqtisodiy-statistik modellari tizimi yordamida tadqiqotlarni davom ettirish lozim.

Ko'rsatkichlarning me'yoriy tizimi qanday bo'ladi, uning asosida hisoblab chiqiladigan tizimning rivojlanish koeffitsienti qanday bo'lishi lozim? Bu masala juda ham muhim. Tanlab olinadigan masshtab ko'p jihatdan tizimning rivojlanish darajasiga bog'liq. Bizningcha, amaliyot nuqtai nazaridan hamma sharoitga moslasha oladigan tanlash usullaridan elastik usul afzalroq. Bu iqtisodiyotda keng miqyosli auditorlik markazlari orqali, qolaversa, mamlakat miqyosida qabul

qilingan va qilinadigan iqtisodiy qarorlarning turli variantlarini istibolda oldindan ko'rib chiqish va tahlil qilish imkoni beradi.


Hujjatlarni oddiy (an'anaviy) tanlash usulini qo'llash ham bir necha xil shakllarda amalga oshirish mumkin. Masalan: davrlar bo'yicha, ma'lum hujjat turlari bo'yicha, ma'lum muomala turlari bo'yicha tanlash va h.k.lar.

Auditorlik faoliyatida, qolaversa, tashkilotlarda oxirgi paytlarda keng qo'llanilayotgan yangi axborot texnologiyasining dasturiy ta'minot usullarining boshqa usullardan ustunligi, elektron hisoblash texnikasi va uning dasturlarining takomillashib borayotganligidadir. Birinchidan, ulardan foydalanish juda ham qulay, ya'ni barcha operatsion sistemada foydalanishga yaroqli (versiya takomillashgan operatsion tizimni talab etmaydi), ikkinchidan, kam vaqt va mehnat talab qiladi. Uchinchidan, ishning natijasini tez, batafsil va yaqqol namoyon qilishidir. Boshqacha aytganda, bunda ishning sifati yuqori bo'ladi.

Demak, to'qimachilik korxonalarida tashqi audit tekshiruvini tashkil qilish uslubiyotini tahlil qilib, xulosa qilish mumkinki, uning usulini yuqorida keltirilgan tartibda bo'lishi maqsadga muvofiq, deb topildi. Chunki, bu usul va amallardan korxonada tashqi auditi tizimida qo'llash yaxshi ijobiy natijalarga olib keladi.

2.2. Korxonalarda tashqi audit tekshiruvi o'tkazishni rejalashtirish va auditorlik dalillarini to'plash usullari

Aktsiyadorlik to'qimachilik korxonalarida auditorlar va auditorlik tashkilotlari tomonidan tashqi auditni o'tkazish rejasiga binoan audit qonunchiligi, auditorlik faoliyatining milliy va xalqaro standartlari talablari doirasida ma'lum ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Bunda, to'qimachilik korxonasida tashqi auditni o'tkazishga asos bo'lib, dastavval, tashqi audit o'tkazish to'g'risidagi yozma buyurtmasi asosidagi rozilik va majburiyat xati hisoblanadi (2.2.1-rasm).



2.2.1-rasm. Auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishni tashkil qilish bosqichlari

Auditorlik tashkiloti yozma buyurtmani olgandan keyin buyurtmachi aktsiyadorlik to'qimachilik korxonaning ahvoli (korxonaning faoliyati, uning buxgalteriya va moliyaviy hujjatlari) bilan birlamchi tanishuvni amalga oshiradi. Bunda, auditning dastlabki rejasini tuziladi. Shundan keyin, audit o'tkazish bo'yicha roziligini yozma ravishda majburiyat shaklida ifodalaydi. Shartnoma ikki tomonlama tasdiqlangandan keyin, auditorlik tashkiloti tashqi audit tekshiruvini o'tkazish bo'yicha umumiy reja va ishchi dasturni tuzadi. Dasturda esa auditda qo'llanilayotgan aniq usullar, tekshirish muddatlari, audit natijalarini rasmiylashtirish tartibi ifodalanadi.

Auditning samaradorligi uni to'g'ri rejalashtirishga bevosita bog'liqdir. Auditorlik tashkilotlari turli mulk va tarmoq shaklidagi aktsiyadorlik to'qimachilik korxonalarining faoliyatlarini tekshiradi. To'qimachilik korxonalarining faoliyatini tashqi auditorlik tekshiruvidan o'tkazishda rozilik xati berilishi nazarda tutiladi. Buning uchun esa shartnoma imzolashdan oldin auditning dastlabki rejasini tuziladi. Ayrim iqtisodchi olimlar: «Auditni rejalashtirish - auditning taktikasi va strategiyasini aniqlashdir» - deb ham e'tirof etishgan. Audit strategiyasi qo'yilgan maqsad va vazifalarni ma'lum ketma-ketlikda va aniq istiqbolga asoslanib bajarilishini ta'minlasa, audit taktikasi esa qo'yilgan maqsadlarga erishishning shakl va usullarini ifodalaydi.

Auditning rejalashtirilishi ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi bo'lib, auditning umumiy hajmini aniqlash bo'yicha dastur tuzishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, to'qimachilik korxonalarida tashqi audit tekshiruvini rejalashtirishga bir qator omillar ta'sir etadi (2.2.2-rasm).


Audit o'tkazishning umumiy rejasi audit dasturi bilan bog'liqdir. To'qimachilik korxonalarida audit rejasiga asosan uning dasturi tuzilib, ularga taqdim etiladi.

Audit o'tkazish jarayonini samaradorligini oshirishda tekshiruv qisqa muddatda va sifatli yakunlanishi zarur. Buning uchun fikrimizcha, tashqi auditning umumiy rejasi quyidagilarni o'zida mujassam etishi lozim:

- To'qimachilik korxonai biznesini, faoliyatini bilishi yoki u bilan tanishuv;
- Buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini yaqqol anglashi yoki tushunishi;
- Tavakkalchilik va muhimlikning aniq darajasini keltirishi;
- Tekshiruv jarayonida qo'llaniladigan muolaja, usul va uslublardan foydalanishning muddatlari va hajmi ko'rsatilishi;
- Korxon boshqaruvining hozirgi holatiga tavsif;
- Boshqa istiqbolli yo'nalishlar va h.k.lar.

Audit o'tkazish jarayonini samaradorligini oshirishda tekshiruv qisqa muddatda va sifatli yakunlanishi zarur. Buning uchun fikrimizcha, tashqi auditning umumiy rejasi quyidagilarni o'zida mujassam etishi lozim:


- To'qimachilik korxonaci (mijoz) biznesini, faoliyatini bilishi yoki u bilan tanishuv;
- Buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini yaqqol anglashi yoki tushunishi;
- Tavakkalchilik va muhimlikning aniq darajasini keltirishi;
- Tekshiruv jarayonida qo'llaniladigan muolaja, usul va uslublardan foydalanishning muddatlari va hajmi ko'rsatilishi;
- Korxon boshqaruvining hozirgi holatiga tavsif;
- Boshqa istiqbolli yo'nalishlar va h.k.lar.



2.2.2-rasm. To'qimachilik korxonalarida tashqi audit tekshiruvini rejalashtirishga ta'sir etuvchi omillar

Qayd etish lozimki, audit rejasi to'liq faoliyatni qamrab olishi va rejalashtirish bosqichlarining o'zaro bog'liq va ixcham bo'lishi hamda uzluksiz, bir-birini to'ldirib borishi shart. Audit rejasi va dasturi audit natijasini hujjatlashtirish bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak. Rejaning uzluksizligi deganda ushbu rejada auditning barcha ob'ektlari bo'yicha vazifalarning aniq belgilanishi va ichki nazorat tizimi bilan aloqadorligi hamda yakuniy aniq natijaga tezroq erishish usullarining mavjudligi tushuniladi. Korxonada faoliyati audit qilinganda uning barcha bo'limlari (filiallari) va ulardagi xo'jalik jarayonlari ham tekshirilib, yakuniy natijalar umumiy xulosaga kiritilishini ta'minlaydi.

Audit rejasi ixcham va tushunarli tuzilgan bo'lishi kerak. Rejada audit o'tkazish tartibi va usullari yaqqol namoyon bo'lishi, uning ijobiy tomonlari keltirishi lozim. Ammo, auditorlar o'zlariga ma'qul usulni tanlab audit o'tkazadilar. Yuqoridagilardan kelib chiqib auditorlik faoliyatini rejalashtirishni quyidagicha tasvirlaymiz (2.2.3-rasm).




2.2.3-rasm. Auditni rejalashtirish

Shuningdek, auditorlik faoliyatining milliy va auditning xalqaro standartlari hamda xalqaro auditorlik tashkilotlari tajribasidan kelib chiqqan holda, bizningcha, tashqi audit tekshiruvini o'tkazish quyidagi beshta bosqichni o'z ichiga olishi lozim (2.2.4-rasm).

Audit o'tkazishda buxgalteriya hisobi, statistik hisob, biznes-reja va boshqa

ma'lumotlardan keng foydalaniladi. To'qimachilik korxonalari faoliyatini to'la va chuqur izohlovchi muhim hujjat uning moliyaviy hisoboti hisoblanadi. Tahliliy amallar bo'yicha auditning hajmi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Ikkilanishga sabab bo'layotgan alohida moliyaviy muomalalarning mavjudligi va hujjatlashtirilganligi to'g'riligini tekshirish;
- pul mablag'lari va boshqa aktivlar inventarizatsiyasini o'tkazish imkonining mavjudligi;
- balans va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari asosida Korxonada moliyaviy holatini tahlil qilish;
- analitik va sintetik hisob ma'lumotlarini Korxonada daromad va xarajatlari aks etgan hisobotga muvofiqligi, davrlarda to'g'ri ko'rsatilganligini tekshirish;
- qabul qilingan hisob siyosatining iqtisodiy samaradorligini baholash.



2.2.4-rasm. Tashqi audit tekshiruvini o'tkazish bosqichlari


Bizningcha, yuqoridagilarni tahlil qilib, audit o'tkazishda unga tayyorgarlik

ko'rish va uni to'g'ri rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz tavsiya etayotgan tekshirishga tayyorgarlik va uni rejalashtirish bo'yicha bergan taklifimiz, birinchidan, tekshiruvlarga kam vaqt va mehnat talab qilsa, ikkinchidan, uning sifatli o'tkazilishini ta'minlaydi. Rejalashtirish qancha puxta va detallashgan holda ishlab chiqilsa, audit o'tkazish dasturi ham shuncha o'z takomilini topadi.

Demak, xulosa qilib aytganda, auditorlik tashkilotlari tomonidan aktsiyadorlik To'qimachilik korxonalarida auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishni tashkil etishda yuqoridagi tartibda rejalashtirish, ularning faoliyatlarini, batafsil o'rganish va bu bo'yicha qisqa muddat ichida aniq, ishonchli fikr bildirish hamda moliyaviy hisobot ma'lumotlarining haqqoniyligini tasdiqlash imkoniyatini yaratadi. Chunki, to'qimachilik korxonalarining manfaatli hamkorlar bilan bo'ladigan aloqalarida xuddi shu fikrning ahamiyati beqiyos.

Auditning ham o'ziga xos usul va uslubi mavjud. Shu jumladan, tashqi audit tekshiruvlarini o'tkazishda ham ma'lum tartib va bosqichlarga rioya qilinishi va ketma-ketlikda amalga oshirilishi kerak. Bu borada E.A.Arens va Dj.K.Lobbeklar o'zlarining quyidagicha fikrlarini berishgan (2.2.5-rasm).



2.2.5-rasm. Auditni samarali o'tkazishda umumiy reja va ishchi dastur tuzish hamda uslubiyotni ishlab chiqish uchun qo'yilgan bosqichlar

Bizningcha, audit o'tkazishda, eng avvalo, ishchi dasturlarining ahamiyati katta. Asosiysi, ushbu ishchi dasturlarida nazarda tutilgan, foydalaniladigan usullar yig'indisi ishning mazmun va mohiyatini yanada boyituvchi vosita ekanligini har doim yodda tutishimiz lozim, ya'ni uslubiyot - bu mavjud muammolarning echimini ochib berish yo'llarini ko'rsatuvchi dastak deyish ham mumkin. Ammo, usullarning tub mohiyatini tahliliy amallar tashkil qiladi. Barcha usullarda ham tahliliy amallar o'tkazilib, dalil sifatida ma'lumot olinadi. Ta'kidlash joizki, tahliliy amallar tekshiruvni ishonchli ekanligini hamda dalillar olishni ta'minlaydi. Shuningdek, ayrim iqtisodchi olimlar auditorlik dalillarini olinish tartibiga ko'ra moddiy va shaxsiy, olinish usullari bo'yicha teskari va to'g'ri, asoslanishiga qarab og'zaki va yozma, kelib chiqishiga ko'ra tashqi va ichki auditorlik dalillariga ajratishadi.

To'qimachilik korxonalarida tashqi audit tekshiruvini o'tkazishda test amallaridan ichki audit tizimi holatini, xo'jalik muomalalari mohiyatini yoritishda, tahliliy amallarni bajarish chog'ida hamda har bir elementlar bo'yicha qoldiqlar summasini aniqlashda foydalaniladi. Ushbu holatlar har birini tahliliy amallarni bajarishning ma'lum bir ko'rinishi sifatida ham baholash mumkin.

Moliyaviy hisobot auditini o'tkazishda tahliliy amallar hajmiga e'tibor beriladi.

Avvalroq, yuqorida keltirilgan tahliliy amallar, bizningcha, audit tekshiruvlarida qo'llanilgan usullarga aniq bir, ishonchli oydinlik kiritish maqsadida hamda tekshiruvlarning sifatini oshirishda, qolaversa, audit riskini va auditning muhimligini kamaytirishda ahamiyati beqiyos.

Ayrim iqtisodchi olimlar audit o'tkazishda tahliliy amallarning 4 ta vazifasi mavjud deb hisoblashadi. Bular: 1) Mijozning biznesi bilan tanishuv; 2) Muassasaning faoliyat ko'rsatuvchanlik qobiliyatini baholash; 3) Moliyaviy hisobotda xatolarning mavjud bo'lishi mumkinligi ehtimolini baholash; 4) Detallashgan auditorlik testlarining sonini qisqartirish va hokazolar. Ushbu tahliliy amallar, aynan audit o'tkazishning rejalashtirish bosqichida bajarilishi diqqatga sazovordir. Ayrim amallar oldin ta'kidlaganimizdek, rejalashtirish davrida amalga

oshiriladi. Ya'ni, auditor auditning maqsadi, oldinda turgan ish hajmi va muddatini aniqlashi juda muhim. Rejalashtirish vaqtida sodir etilgan amallar auditorga muhim vaziyatlarga oydinlik kiritishda yordam bersa, sal keyinroq, ya'ni, audit jarayonida bajarilgan amallar tekshiruvda asosiy diqqatni talab qiladi. To'qimachilik korxonalarida bevosita tahliliy amallar qo'llanilishi natijasida o'tkazilgan audit tekshiruvlari to'g'risida keltirilgan 2.2.1-jadval ma'lumotlari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

2.2.1-jadval

To'qimachilik korxonalarida 2013 yilda tashqi audit tekshiruvini o'tkazishda foydalanilgan tahliliy amallar va ularning natijalari

№	Tekshiruv o'tkazilgan to'qimachilik korxonai	Tahliliy amallar turi	Audit natijasida aniqlangan xato va kamchiliklar	Bartaraf etilgan kamchiliklar	Audit samaradorligi, foiz hisobida
1	INDORAMA-KOKAND TEXTILE	Test o'tkazish	20 ta	15 ta	75,0 %
		Dalillar olish	30 ta	20 ta	66,7 %
		Kompyuter dasturlari yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish	50 ta	25 ta	50,0 %
2	DAEWOO-BUKHARA-TEXTILE	Test o'tkazish	15 ta	11 ta	73,4 %
		Dalillar olish	20 ta	18 ta	90,0 %
		Kompyuter dasturlari yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish	30 ta	23 ta	76,7 %
3	BF-TEXTILE	Test o'tkazish	15 ta	10 ta	66,7 %
		Dalillar olish	25 ta	20 ta	80,0 %
		Kompyuter dasturlari yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish	35 ta	25 ta	71,4 %
4	KOKAND ASAKA TEXTILE	Nazorat savolnomasini olish	17 ta	10 ta	58,8 %
		Test o'tkazish	27 ta	18 ta	66,7 %
5	SURHON TEKS	Test o'tkazish	12 ta	7 ta	58,4 %
		Dalillar olish	17 ta	12 ta	70,6 %
		Kompyuter dasturlari yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish	20 ta	16 ta	80,0 %

Yuqoridagi 2.2.1-jadvaldan ma'lum bo'lishicha, auditda tahliliy amallarning beradigan samarasi yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Chunki, ularni qo'llash orqali moliyaviy faoliyat natijasiga chuqurroq baho berish imkoniyati yaratiladi. Tahlil natijasida, 2013 yilda o'tkazilgan tashqi audit tekshiruvda korxonalar faoliyatida aniqlangan xato-kamchiliklar: "INDORAMA-KOKAND TEXTILE" da 50 tadan 25 tasi yoki 50%i, "DAEWOO-BUKHARA-TEXTILE" da 30 tadan 23

tasi yoki 76,7%i, “BF-TEXTILE”da 35 tadan 25 tasi yoki 71,4%i, "KOKAND ASAKA TEXTILE” da 27 tadan 18 tasi yoki 66,7%i, “SURHON TEKS” da 20 tadan 16 tasi yoki 80%i bartaraf etilgani buni yaqqol isbotlaydi.

Xulosa qilib, iqtisodiy isohotlarning chuqurlashuvi va auditorlik faoliyati rivoji O'zbekistonda korxonalar tizimi murakkablasha borayotgan bir paytda korxonalar faoliyatini baholashning yangicha me'zonlarini ishlab chiqish zaruriyatini vujudga keltiradi. Har qanday miqdoriy ko'rsatkichlar bo'yicha tekshirish va ular faoliyatini baholashda sifat ko'rsatkichlari orqali korxonalar rivojlanish yo'lini auditorlik baholash chog'ida tekshiriladigan dinamik aloqalar asosiga qurilgan baholarga va o'lchash usullariga asta-sekin o'tish lozim. Boshqacha aytganda, hozirgi vaqtda auditorlar oldida juda muhim, korxonalar taraqqiyoti yo'lini baholashning yangicha usullaridan foydalanib, auditning yakunlovchi bosqichiga o'tish vazifasi turibdi. Auditorlar yuqoridagi tasnif qilingan usullarga asoslangan holda, iqtisodiy axborotni kompyuter dasturlaridan foydalanib, auditorlik faoliyatini amalga oshirishning eng maqbul imkoniyatlarini vujudga keltiradilar.

Bizningcha, to'qimachilik korxonalarini o'z faoliyatlarini tashqi audit tekshiruvidan o'tkazishning quyidagi asosiy ob'ektlar mavjud:

1. Ta'ris hujjatlarini tahlil qilish;
2. Korxonalar Ustavini tahlil qilish;
3. Ustav fondining tashkil topish manbalari, uning to'liqligi va o'z vaqtidaligi;
4. Kredit muassasasi tashkiliy strukturasi samaradorligini tekshirish;
5. Hisob-kitob muomalalarini tekshirish;
6. Kassa muomalalari yuritilishi va uni rasmiylashtirishning to'g'riligi;
7. Korxonalar depozit muomalalarining tahlili;
8. Korxonalar aktivlari bilan bog'liq muomalalarni tekshirish;
9. Kredit tashkilotining xorijiy valyutadagi muomalalarining tahlili;
10. Kredit tashkilotini xo'jalik yurituvchi sub'ekt misolida tekshirish;
11. Rasmiy moliyaviy hisobotni tuzish va tahlil qilish;
12. Buxgalteriya hujjatlarini tekshirish.

III -BOB. IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARI TASHQI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

3.1. O'zbekistonda tashqi audit tekshiruvini o'tkazishda xalqaro standartlarni qo'llash imkoniyatlari

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ilk bor auditning huquqiy, tashkiliy metodologiyasi yaratildi. Xalqaro audit standartlari ham aynan iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqildi. Dastlab, Amerika Qo'shma SHtatlarida 1947 yilda 10 ta (Umumqabul Qilingan Audit Standartlari - GAAS) AICPA - (Amerika Diplomli Jamoat Buxgalterlari Instituti) orqali ishlab chiqilgan. Bu sifat qoidalaridan biri hisoblanadi.

Amerika buxgalterlarini sertifikatlash instituti a'zolari hozirgi kunda 318000 kishidan ko'p bo'lib, ularning hammasi holis auditor sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Amerika buxgalterlarini sertifikatlash institutining to'rtta asosiy funksiyasi mavjud:

1. Standartlar va qoidalarni belgilash;
2. Ilmiy izlanishlar va ularning ilmiy ishlarini chop etish (uzluksiz o'qitish);
3. Ishlab chiqilgan standartlarni tasdiqlash;
4. Audit faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xizmatlarni tartibga solish;

Quyida 10-GAAS auditorlik standartlari to'g'risida to'xtalamiz.

Umumiy Standartlar:

1. Audit maxsus tayyorgarlik va auditorlik kasbiy sifatiga ega shaxs yoki shaxslar tomonidan bajarilishi kerak.

2. Topshiriq bilan bog'liq bo'lgan har qanday savollarni auditor mustaqil saqlab qolishi kerak.

3. Tekshiruv o'tkazish va xulosa berishda kasbiy sinchkovlikni namoyon etish zarur.

Ishchi standartlar:

1. Ishni puxta rejalashtirish va yordamchilar mavjud bo'lsa, ular ustidan to'la nazorat o'rnatilishi kerak.

2. Tekshirish hajmini belgilashda, vaqt chegaralarini aniqlashda va audit rejasini tuzishda auditor ichki nazorat tizimini to'la o'rganib chiqishi zarur.

3. Auditdan o'tkazilayotgan moliyaviy hisobot bo'yicha fikr berish uchun tekshirish, kuzatish, so'roqlar o'tkazish yo'li bilan hujjatlar to'plab, zaruriy asos yig'ish kerak.

Audit xulosalari standartlari:

1. Xulosada moliyaviy hisobot umumiy qabul qilingan buxgalteriya tamoyillariga amal qilgan holda tuzilganligi to'g'risidagi ma'lumot bo'lishi kerak.

2. Xulosada bu tamoyillardan chetga chiqish sharoitlari belgilanishi va tartibi aniqlanishi kerak.

3. Xulosada moliyaviy hisobotdagi ma'lumotni xatolardan holi deb qarash, agar xatolar bo'lsa ularga umumiy sharx berish kerak.

4. Xulosa moliyaviy hisobot bo'yicha to'la fikrlar majmuidan iborat bo'lishi yoki fikr bildirishi mumkin emasligini ma'lum qilishi kerak. Agar fikr bildirish mumkin bo'lmasa, uning sabablari keltirilishi shart. Xulosa auditorlik tekshiruvi xarakterini ham ifodalab, auditorlar javobgarlik darajasi haqida ham ma'lumotlarni berishi zarur.

Audit standartlarini yaratish maqsadida xalqaro buxgalterlar uyushmasini (Federatsiyasi) tashkil etishdi. Bu IFAC, ya'ni Xalqaro Buxgalterlar Federatsiyasi deb nomlanadi. Tashkilotda audit bo'limi tashkil etilib, ular amaliyotda IAPC – Xalqaro Auditorlik Amaliyoti Qo'mitasi deb yuritiladi. Bu Qo'mitada IAG - Xalqaro Auditorlik Tamoyillari bo'limi tashkil topgan bo'lib, bo'lim orqali jahon bo'yicha auditorlik faoliyati yaxshi rivojlanmagan mamlakatlarga auditning xalqaro standartlari orqali amaliy yordam beradi. IAPS - Xalqaro Auditorlik Amaliyoti Qo'mitasi nomidan IFAC - Xalqaro Audit Federatsiyasi Qo'mitasi audit faoliyatini tashkil qilish uchun audit standartlarini ishlab chiqadi. Bu qo'mita hisob va auditga doir barcha faoliyatini o'zining qo'mitalari orqali amalga oshiradi. Hozirgi davrda bular jumlasiga: auditorlik amaliyoti bo'yicha qo'mita, o'qitish

bo'yicha qo'mita, etika (ahloq) bo'yicha qo'mita, moliyaviy hisob va boshqaruv hisobi bo'yicha qo'mita, rejalashtirish bo'yicha qo'mita, jamoat sektori bo'yicha qo'mita va hokazolar.

Bu auditning xalqaro standartlari, bevosita jarayon yoki audit yondoshuvi bo'yicha qoidalar va xizmat ko'rsatish kelishuv holatlari va ma'lumotlarni yig'ish bo'yicha qoidalarni o'zida mujassamlagan.

Shunday qilib, audit standartlarining mohiyati - bu umum qo'llaniladigan standartlar bo'lib, ular auditorlar tomonidan moliyaviy xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni audit qilish jarayonida umum qabul qilingan qonun-qoidalarga rioya qilish va ularni talablariga javob berishdan iborat bo'ladi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bu yuqoridagi 10-ta «GAAS» (Umumqabul Qilingan Audit Standartlari) yo'riqlariga asoslanib, xalqaro audit standartlari amaliyotga tadbiiq qilinadi.

Jahon iqtisodiyoti qolaversa, moliyaviy xizmatlar bozorida kapital mablag'lar va investitsiyaning erkin aylanishi, aytish mumkinki, hisob siyosati va audit standartlarining yanada takomillashishiga turtki bo'ldi. Ko'pgina hisobchi mutaxassislar, shu jumladan, nazoratchi tashkilotlar, moliyaviy ma'lumotlardan foydalanuvchilar, yirik kompaniyalar va firmalar xalqaro standartlarning talab darajasida yaratilishiga va takomillashishiga katta qiziqish bilan e'tibor qaratdilar. Sababi, hisob, hisobot va auditning xalqaro standartlari jahon iqtisodiyotida hamda mahalliy iqtisodiyotda yagona hisob va audit tilini yaratishga, qolaversa iqtisodiyotda, amaliyotda ham, ular o'z izchilligi va ishonchliligi bilan foydalanishga qulay bo'lishiga ishonishardi.

Auditning milliy standartlari haqida gap borar ekan, biz ularni xalqaro talablar darajasida ishlab chiqilgan deb ayta olamiz. Shu bois, ularda ayrim bartaraf etilishi lozim bo'lgan kamchiliklar mavjud. Ammo, ta'kidlash joizki, milliy standartlar milliy mentalitetni o'zida mujassam etgan. SHu bois, mamlakatimizda aynan aktsiyadorlik To'qimachilik korxonalarida tashqi audit o'tkazishda auditning xalqaro standartlaridan tashqari ayrim moliyaviy hisobot halqaro standartlari tamoyillaridan ham foydalaniladi.

Mamlakatlar hisob-kitobini standartlashtirish chog'ida hozirgi iqtisodiyoti rivojlanib borayotgan mamlakatlarda moliyaviy hisobotni tashqi audit tekshiruvdan so'ng o'zgarishini ko'rib chiqamiz. Moliyaviy hisobot o'zgarishining ikki variantidan foydalanish mumkin. Birinchisi - inflyatsiyani hisobga olib hisobotni o'zgartirish, ikkinchisi - valyuta kursining o'zgarishini hisobga olib moliyaviy hisobotni o'zgartirish.

Moliyaviy hisobot inflyatsiyani hisobga oladigan, ya'ni hisobot tuzilgan sanada amal qilib turgan pul birliklarida taqdim qilinadi. Buning uchun ma'lumotlar umumiy xarid qobiliyatining o'zgarishini aks ettiruvchi umumiy narxlar indeksi (general price index) yordamida qayta hisoblanadi. SHunday qilib, milliy so'mlarda tuzilgan hisobotni o'zgartirish jarayonida unga umumiy narxlar indeksi bo'yicha tuzatish kiritilishi, hisobot tuzilgan sanadagi kurs bo'yicha valyutaga o'tkazilishi va tegishli tarzda qayta guruhlanishi kerak. Bunda eng murakkab ish real umumiy narxlar indeksini topish va qo'llanishi bilan bog'liqdir.

Hisobotning valyuta nuqtai nazaridan o'zgarishi yana o'sha 29- Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standarti tavsiyalari asosida yuz beradi. Bu standart ishonchli umumiy narxlar indeksi bo'lmaganda baholashni valyutaning almashuv kursi o'zgarishi asosida amalga oshirishni taklif qiladi. Bu «Valyuta kurslari o'zgarishining ta'siri» degan 31-Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartni qo'llashni taqozo qiladi. Mazkur standartlar moliyaviy hisobotning turli moddalarini qayta hisoblash uchun valyuta kurslarini tanlab olishning quyidagi qoidasini belgilaydi, pul moddalari (monetary items) hisobot tuzilgan sanadagi kurs bo'yicha qayta hisoblanadi, pulsiz moddalar sotib olish qiymati bo'yicha aks ettiradigan (non monetary items) sotib olish sanasidagi kurs bo'yicha qayta hisoblanadi (bu kurs tarixiy kurs deb ataladi), bozor qiymatida aks ettiradigan pulsiz moddalar uni aniqlash sanasidagi kurs bo'yicha qayta hisoblanadi.

Shunday qilib, moliyaviy hisobot o'zgartirilganida so'mdagi ma'lumotlar valyutaga turli kurslar bo'yicha qayta hisoblanadi. Hosil bo'lgan farq «o'zgarish farqi» yoki «umumiy kurs farqi» deb nomlanadi va Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlarining tavsiya qilgan qoidalarga muvofiq ravishda hisobga

olinadi. Bundan tashqari, ayrim moddalar hisobi xalqaro standartlarning talablariga muvofiq ravishda bo'lmaganida, ularga tuzatishlar kiritiladi.

Audit xulosasining asosiy vazifasi, korxonalar mulkiy va moliyaviy ahvolidan, shuningdek, uning faoliyatidagi moliyaviy natijalarning inflyatsiya davrida buxgalteriya tamoyillariga amal qilgan holda to'g'ri ko'rsatganligidan iborat bo'ladi. Hisob ma'lumotlarining to'g'riligi mezonini har bir mulkdor o'zi uchun belgilab oladi. Lekin, xorijiy sheriklarga esa auditorning xulosasi zarur. Auditor ushbu mezonlarning uzil-kesilligini, ularning asosligini tasdiqlashi yoki rad etishi kerak.

Shunday qilib, auditor xulosasi hatto mulkdorlar hisoblash metodologiyasiga turlicha yondoshganlarida ham foydalanuvchilarga buxgalteriya hisobiga etarli darajada ishonch bilan qarash imkonini beradi. Ko'rsatkichlar tarkibi mol-mulk, sarmoya, majburiyatlar va moliyaviy natijalarning eng ahamiyatli qismlari yoritib berilishini ta'minlash kerak. Balans va boshqa hisobot moddalarini tashkilotning moliyaviy ahvolidan va faoliyat natijalarini baholash uchun qanchalik muhimligiga qarab ularni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq. Auditning xalqaro standartlarini jahon bo'ylab iqtisodiyotga tadbiiq etilishi, shuningdek, mahalliy iqtisodiyotda auditorlik faoliyatining milliy standartlarini qo'llash natijasida, xalqaro standartlarga bo'lgan ishonch yanada yuksaldi.

Xullas, tashqi audit o'tkazishda xalqaro standartlarning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Biz bevosita hozirda aktsiyadorlik To'qimachilik korxonalarini bildirayotgan talab va takliflardan kelib chiqqan holda, tashqi audit tekshiruvlari amaliyotida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanish keng yo'lga qo'yilganligini kuzatishimiz mumkin. Bu bo'yicha uning nazariyasiga to'xtalamiz:

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari 3 ta asosiy nazariy elementdan iborat: kontseptsiyalar; postulatlar; audit standartlari.

Kontseptsiyalar - juda keng ma'noli va keng qamrovli tushuncha bo'lib, u nazariyaning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Kontseptsiyalar asosida nazariyaning turli yo'nalishlari aniqlanib, asoslanib, nazariy jihatdan boyitiladi.

Postulatlar - aksioma tarzidagi fundamental tasdiqlar bo'lib, u asosida faoliyat yo'nalishlarini belgilab beradi. Postulatlar yordamida audit standartlarini tushunish mumkin. Lekin, postulatlardan, mavjud voqelikni e'tiborga olmay, unga ko'r-ko'rona rioya qilish yaxshi natija bermaydi. Shu sababli, aniq holatlarda mavjud voqelikni e'tiborga olib audit faoliyatini olib borish sababli, u audit sifatini oshiradi. Qisqacha qilib aytganda, audit postulatleri yordamida audit standartlarining mohiyati ochib beriladi.

Uchinchi asosiy element audit standartleri bo'lib, ular yordamida audit faoliyatining sifati belgilanadi. Audit standartleri audit muddati, kompyuter tizimiga asoslangan hisob holatidagi auditorlik tekshiruviga muvofiq holda o'zgartirilishi ko'zda tutilmaydi. Sababi, standartlar barcha holatlarni e'tiborga olib ishlab chiqilgan.

Audit nazariyasining bu uch elementi bir-biri bilan uzviy bog'liq. Kontseptsiyalar asosida postulatlar ishlab chiqiladi, postulatlar asosida esa audit standartleri kelib chiqadi.

Audit nazariyasining 4ta asosiy kontseptsiyalari mavjud: hulq-atvor etikasi; mustaqillik; mahoratlilik; isbotlilik.

Bu kontseptsiyalar asosida quyidagi postulatlar kelib chiqadi: manfaatlarning to'qnashish ehtimolligi; auditor tomonidan bir yo'nalishdagi faoliyatni amalga oshirish; kasbiy majburiyatlar; verifikatsiya (biror muammo bo'yicha aniq ma'lumotlarni yig'ish va biron mezon asosida baholash); ichki nazorat va uning ishonchliligi; avvalgi ma'lumotlarni kelgusida ham ishonchliligi.

Har bir auditor mana shu postulatlarni izchillik bilan o'rganishi lozim. Sababi, auditor xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy holatini audit qilish jarayonida har xil muammolarga duch kelishi mumkin.

Audit standartleri yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, moliyaviy hisobotni tekshirishda, auditorga yordam beruvchi materiallardan iborat bo'lgan qoidalar yig'indisidir. Ularga kasbiy sifatlar va talablar ko'zda tutilgan. Kasbiy sifatlar jumlasiga, mustaqillik, o'z kasbining ustasi bo'lishi kabilar kiritilsa, talablarga auditor xulosasiga qo'yilgan talablarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Audit standartlari auditorlar yoki audit jarayonini amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlarga biror xil majburiyatni yuklamaydi, lekin bu standartlar audit amaliyotida umumlashtirilgan qoidalarga asoslanib ishlab chiqilgandir. Bu audit standartlar nazariyasiga ko'ra berilgan ta'rifni yana bir bor tasdiqlaydi. Ya'ni, audit standartlari auditorlik nazoratining asosiy qoidalari yoki auditorlik nazoratining asosiy tamoyillari bo'lib hisoblanadi. Bu qoidalar yordamida auditor quyidagilarni aniqlab oladi: audit tekshiruvi hajmini; uni o'tkazish uslubiyotini; audit natijalarining mezonlarini.

Standartlar talabi auditorlardan, auditorlik faoliyati qanday sharoitda o'tkazilishidan qat'iy nazar, ularga rioya qilinishi kerak. Shunday bo'lsada, standartlar auditorlardan mustaqil fikr bildirishni talab etadi.

Audit standartlari, auditorlik tekshiruvlarini belgilangan darajada o'tkazilishini, qo'yilgan talablarga aniq va to'g'ri javob berishini keltirib chiqaradi.

Auditning xalqaro standartlarining qo'llanishi, dunyo miqiyosida moliyaviy hisobotlarni audit qilishni yagona tizimga solish, har bir davlatda bu tizimning ixtiyoriy ravishda qo'llash imkoniyatini yaratadi. Audit standartlari to'rtta asosiy bir-biriga bog'liq qismlardan iborat. Ularga:

- ✓ Asosiy postulatlar;
- ✓ Umumiy standartlar;
- ✓ Ishchi standartlar;
- ✓ Hisobot standartlari.

Asosiy postulatlar yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, auditorlik faoliyatining umumiy asosi bo'lib hisoblangan qonuniyatlar, tamoyillar va zaruriy shartlaridir. Postulatlar auditorlarga standartlar asosida faoliyat yuritish imkoniyati yo'q holatlarda qo'llanilishi kerak bo'lgan qoidalar sifatida yuzaga kelgan.

Umumiy standartlar - auditor egallashi kerak bo'lgan sifatlar darajasini ifodalaydi. Umumiy standartlar yordamida auditor o'zining oldiga qo'ygan vazifasini samarali va sifatli (kasb nuqtai nazaridan) bajarishi mumkin bo'lgan talablar jumlasidan iborat bo'ladi.

Umumiy standartlarga ko'ra auditorlarga qo'yidagi talablar qo'yiladi:

- Tayyorgarlik;
- Bilimdonlik;
- Mustaqillik va ob'ektivlik;

Standartlarning umumiy qismi bo'yicha qo'yilgan talablarga asosan, auditorlik firmalar o'zlariga etarlicha malakali auditorlar biriktirishlari talab etiladi. Umumiy standartlar orqali qo'yiladigan asosiy va muhim talablardan biri mustaqillikdir. Ya'ni, audit jarayoni auditorning o'z bilim va tajribasiga asoslanib, o'ziga xos uslubiyot asosida o'tkaziladi. Mustaqillik omiliga auditorning hujjatlarni olish uchun to'la va erkin imkoniyatlari mavjudligi asosiy ta'sir etadigan vositadir.

Auditorning kompetentligi deganda, audit tekshiruvini o'tkazishda tayyorgarligi, tajribasi va o'z kasbining haqiqiy mutaxassisi hamda audit jarayonida tug'ilgan muammolarni hal qilishda oqilona fikr yuritishi tushuniladi.

Auditor o'zining tekshiruvida turli xil qoida buzishlarni topishi kerak. Bu ko'rsatkich, auditoridan bir qancha bilim va tajriba talab etadi. Ya'ni, auditor moliyaviy tizim, moliyaviy hisobot, buxgalteriya hisobi va shu kabi fanlarni, qonun hujjatlarini, qarorlarni, yo'riqnomalarni yaxshi bilishi zarur.

Ishchi standartlar deganda, auditorlik tekshiruvida auditorning faoliyatini boshqarib turadigan standartlar tushuniladi. Bu qismda auditorlik tekshiruviga tayyorgarlik, xo'jalik sub'ektining ichki nazorat tizimini o'rganish va to'la baholashni o'z ichiga oladi. Ishchi standartlar har qanday audit uchun tegishli va u auditorlar uchun audit tekshiruvini belgilab beradi hamda boshqarish imkonini yaratadi.

Auditning yakunlovchi bosqichida auditning hisobot standartlari qo'llaniladi. U o'zining ichiga audit natijalariga ko'ra, olingan ma'umotlarni etkazib berishini tashkil qiladi.

Bundan tashqari, prognoz va reja standartlari ham mavjud bo'lib, ular asosida kompaniyaning istiqbollari baholanadi.

Bu standartlar umumiy standartlar tuziladigan sxemadek tuziladi. Ya'ni, ularning tuzilishi bir xil. Prognoz va reja standartlaridan auditor moliyaviy

prognozlar va rejalarni tuzish, asosliligi, qonuniyligini tekshirishda foydalaniladi. Bu standartlarda ham umum qabul qilingan standartlardagidek talablar mavjud (mustaqillik, ob'ektivlik va hokazo).

Etikaning umumiy standarti (201-standart) - auditorning har bir faoliyatida qo'llashi kerak bo'lgan umumiy standartdir. Etikaning umumiy standarti ham GAAS, ham attestatsion, ham prognoz standartlarning ba'zi elementlarini o'zida aks ettirgan. SHu sababli, ular bu standartlardan soliq va maslahat xizmatini ko'rsatishda foydalanish mumkin.

Bu standartlarga ko'ra quyidagi talablar mavjud;

1. Kasbga xos yurish-turishlar (auditor faqat o'ziga tegishli bo'lgan ishlarni bajarishi kerak);

2. Kasbga xos e'tiborlilik (auditor audit qilish jarayonida izchillik bilan yondashish kerak);

3. Rejalashtirish va nazorat (o'z faoliyatini to'g'ri rejalashtirish va nazorat qilish kerak);

4. Ma'lumotlarni etarli darajada to'plash (to'g'ri xulosa berish uchun etarli ma'lumotlarga ega bo'lish kerak).

Hozirgi kunda audit standartlarining yana bir turi ajratilmoqda. Bu maxsus auditorlik standartlaridir. Maxsus standartlar maxsus holatlarni auditorlik tekshiruvini uchun ishlab chiqiladi va o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Shu sababli ular maxsus standartlar deb nomlanadi.

Barcha turdagi audit standartlari kompyuter tizimiga moslashgan buxgalteriya hisobini audit tekshiruvidan o'tkazish uchun mo'ljallanmagan. Lekin, GAAS va ishchi standartlar kompyuterlashgan holda ham o'tkaziladi.

Auditning xalqaro standartlari mazmun va mohiyat jihatidan juda katta ahamiyatga ega. Bizning fikrimizcha, xalqaro standartlar quyidagi muammolarni hal qilish uchun ishlab chiqilgan:

1. Audit nazariyasi bilan amaliyotidagi farqlarni kamaytirish va tushunmovchiliklarni bartaraf etish;

2. Auditning nazariy asosini belgilab berish;

3. Audit standartlarida o'ratilgan tartiblardan chetga chiqish holatlarini aniqlash;

4. Standartlarning muhim maqsadlarini kengroq miqyosda muhokama qilish;

5. Tartibga solish va takomillashtirish nuqtai nazaridan uni doimo, yanada rivojlantirib borish.

Shu boisdan, keyingi yillarda buxgalteriya hisobi ma'lumotlari va auditorlar xulosalaridan foydalanuvchilar soni ancha kengayib borayotganligi, integratsiya jarayonlari chuqurlashayotganligi, qo'shma korxonalar barpo etilayotganligi, jahon moliya markazlariga (qimmatli qog'oz bozorlariga, xalqaro korxonalariga, fondlarga va boshqalarga) chiqilayotgan sarmoyalar, ishchi kuchlari, valyutalar, ayrim mamlakatlar o'rtasida erkin harakatlanishi zarurligi hisob siyosati va audit tizimlarining jahon standartlariga ko'chirishligini yanada qattiqroq talab qilmoqda.

3.2. To'qimachilik korxonalarini tashqi audit tekshiruvidan o'tkazish jarayonida moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlarini joriy etish masalalari

O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik korxonalarida moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlari qo'llanilishi iqtisodiyotimizga sezilarli ijobiy ta'sir o'tkazmoqda. Chunki, mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida to'qimachilik korxonalarini faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirish, bu borada yuzaga kelayotgan muammolarni mamlakat miqyosida hal etish, tashqi audit tekshiruvini o'tkazishning nazariy-amaliy jihatlarini va huquqiy maqomini yanada maqbullashtirish, bu soha mavjud kadrlariga bo'lgan professional malakaviy talabni yanada kuchaytirish, xalqaro hamjamiyat, tashkilot, qo'mitalar bilan muammolarni echish yo'llari haqida teng huquqli hamkorlik qilish, yagona til bo'lgan «biznes tili» standartlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga qo'llashni kengaytirish buning yaqqol misolidir. Bundan tashqari, ichki va tashqi moliyaviy

xizmatlar bozorida faoliyat yurituvchi tashkilot, firma va kompaniyalar o'rtasida mukammal ish uslubi hamda ishonchli isbot va dalillar asosida audit natijalarini xalqaro standart talablari asosida rasmiylashtirish dasturining yaratilishi va uni mamlakat amaliyotida keng qo'llash zarurligi sabab bo'lmoqda. Ular quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

Birinchidan, to'qimachilik korxonalarida tashqi audit tekshiruvini o'tkazishning uslubiy asoslarini yaratilishiga olib keldi; uning huquqiy maqomi o'rnatildi; faoliyat uchun zarur bo'lgan milliy kadrlar tayyorlandi;

Ikkinchidan, iqtisodiyotimizga xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonamoliya muassasalarining kirib kelishiga keng qulayliklar yaratildi. Har bir xorijiy investor milliy hisoblar tizimini bilmasligi va to'la tushunmasligi mumkin, lekin bunda investorlar auditorlik tashkilotlari xizmatlaridan foydalanishi mumkin bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda to'qimachilik korxonalarida tashqi audit tekshiruvlari moliyaviy hisobotning va auditning xalqaro standartlariga muvofiq o'tkaziladi. Bunda, auditorlik faoliyatining milliy standartlaridan ham ma'lum ma'noda foydalaniladi. Hozirgi kunda ularning soni 21taga etdi va uning talablari rasmiy auditorlik faoliyatida amal qilishi uchun nazarda tutadigan audit amalga oshirish paytida barcha auditorlik tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi.

O'zbekiston korxonalarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari(MHXS)ni qo'llanishidan asosiy maqsad, mamlakatda qabul qilingan hisob, hisobot va audit qoidalarini xalqaro standart talablariga moslashtirish hisobiga korxonalar tizimining faoliyatini shaffofligi va oshkoraligini ta'minlashdir. Mutaxassislar fikricha, korxonalar tizimida MHXSni muvaffaqiyatli qo'llash barcha moliya muassasalarida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini faol joriy etishga ko'maklashadi. Korxonalar tizimida MHXSni qo'llash korxonalar tomonidan ham nazorat maqsadida, ham boshqaruv maqsadlarini ko'zlab, ishonchli moliyaviy axborot berishini ta'minlashi lozim. O'zbekiston to'qimachilik korxonalarida MHXSni qo'llash bilan bir vaqtda o'z hisob axboroti tizimini (avvalo boshqaruv maqsadidagi hisobni va ichki nazoratni) takomillashtirish uchun

imkoniyat paydo bo'ladi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan To'qimachilik korxonalarida tashqi audit o'tkazish moliyaviy hisobotning va auditning xalqaro standartlari talablari asosida amalga oshiriladi. Xususan, to'qimachilik korxonalarida hisobot moliyaviy hisobotning 29, 31, 39- xalqaro standartlaridan foydalanish asosida tuzilishi hozirgi kungacha amalda joriy etilgan. Uning huquqiy zamini Moliya Vazirligi tomonidan 2007 yil 18 oktyabrdagi 661-son bilan tasdiqlangan «Moliya Vazirligining To'qimachilik korxonalarida auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishga qo'yilgan talablar»ida ham o'z aksini topgan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida narx darajasining o'zgarishini hisobga olgan holda moliyaviy hisobotlarning ko'rsatkichlarini qayta hisoblash zarurati MHXSni qo'llashning eng muhim jihatlaridan biridir. 29-BHXSga muvofiq iqtisodiyoti ko'p jihatlari bilan ushbu standartda belgilangan iqtisodiyoti o'ta qadrsizlanayotgan mamlakat qatoriga kiradigan mamlakat valyutasida hisob beradigan korxonaning moliyaviy hisoboti hisobot vaqtida amal qilgan o'lchov birliklarida taqsim etilishi lozim. Ya'ni, hisobot davriga oid axborot va oldingi davrlarga doir qiyosiy ma'lumotlar moliyaviy hisobot ifodalangan valyutaning umumiy xarid quvvatidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda qayta hisoblab chiqiladi. Ko'rib chiqilayotgan davlat iqtisodiy vaziyatining tavsifi pul o'ta qadrsizlanish jarayoni mavjudligini ko'rsatadi.

29-BHXS xaridning amaldagi qiymati asosida tayyorlangan buxgalteriya balansi moddalarini qayta hisoblashning quyidagi qoidalarini belgilaydi:

- monetar (pul) moddalari qayta hisoblashga muhtoj emas;
- nomonetar aktivlar hisobot tuzilgan vaqtdagi adolatli qiymati bo'yicha, ehtimolli sotish narxi miqdorida yoki qoplanadigan miqdorda ko'rsatilgan bo'lsa, ular qayta hisoblanmaydi;
- balans moddalariga o'zgarish kiritishning dastlabki davrida taqsimlanmagan foyda yoki qayta baholashning har qanday miqdoridan tashqari kapitalning barcha komponentlari qayta hisoblanishi lozim;

- kapitaldagi o'zgarishlar kapitalga kiritiladi; birinchi davrning oxirida va undan keyingi davrlarda kapitalning barcha komponentlari qayta hisoblanishi zarur;

- nomonetar moddalar xarid sanasidan boshlab yoki baholash vaqtidagi adolatli qiymatni hisobga olib, balans qiymatiga nisbatan qo'llaniladigan narx indeksidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda qayta hisoblanadi.

Mazkur standartni qo'llash maqsadida To'qimachilik korxonaning moliyaviy hisobotini tayyorlash chog'ida balansdagi aktivlarni va majburiyatlarni monetar va nomonetar moddalarga ajratish talab qilinadi. Shartnoma bo'yicha narx o'zgarishi bilan bog'liq aktivlar va majburiyatlar, ya'ni obligatsiyalar va kreditlar shartnomaga muvofiq hisobot sanasiga qadar to'lanmagan miqdorni aniqlash uchun o'zgartiriladi.

Qolgan barcha aktivlar va majburiyatlar nomonetardir. Ayrim nomonetar moddalar hisobot sanasida amalda bo'lgan ehtimolli sof sotish narxi va bozor qiymati kabi qiymat bilan hisobga olinadi. Bunday aktivlarga asosiy vositalar, investitsiyalar, tovar-moddiy zahiralar, tashkilotning obro'si, patentlar, savdo markalari va boshqalar kiradi.

Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotning barcha moddalar hisobot sanasi vaqtidagi o'lchov birliklarida ifodalanishi lozim. Shunday qilib, barcha miqdorlar daromadlar yoki xarajatlar moddalari moliyaviy hisobotga dastlab yozib qo'yilgan sanadan so'ng, sodir bo'lgan inflyatsiya darajasini qo'llash yo'li bilan qayta hisoblanishi lozim.

39-MHXSdan foydalanib, moliyaviy aktivlar va majburiyatlarni tavsiflaydigan bir qancha belgilarni ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan, majburiyat hozirgi paytda mavjud bo'lsa va xo'jalik faoliyati oldingi faktlarining oqibati bo'lsa; bo'lajak to'lovlarning zarurligi bilan bog'liq bo'lsa, u kreditorlik qarzi hisoblanadi va uni bajarish muddati ko'rsatilgan bo'lsa ham, hozirgi paytda bajarilishi kerak.

39-MHXSda moliyaviy vositalar keyinchalik ulardan Korxonalar qanday

foydalanishiga qarab, quyidagi yirik guruhlarga bo'lingan:

- sotish uchun mo'ljallangan moliyaviy aktivlar va majburiyatlar;
- Korxonadan berilgan qarzlarning va debitorlik qarzlari to'langunga qadar ushlab turiladigan investitsiyalar;
- sotish uchun mavjud bo'lgan naqd moliyaviy aktivlar.

Bunday tasnif aktivlarni va majburiyatlarni ularning turlariga qarab chegaralashga imkon beradi, lekin qarzlarni to'lash muddatlari bo'yicha bir turdan ikkinchisiga o'tishi (gradatsiyasi) ko'zda tutilmagan.

7-MHXS «Pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot» deb nomlangan bo'lib, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarning barcha toifasiga, xususan, to'qimachilik korxonalarining pul mablag'lariga bo'lgan talabini, pul mablag'lari va unga tenglashtirilgan ekvivalentlarni yaratish imkoniyatini baholashga yordam beradi. Bundan tashqari, foydalanuvchilarga pul oqimlarini yaratishning vaqti va aniqligi zarurdir. Shu bois, 7-MHXSdan to'qimachilik korxonalarini yillik moliyaviy hisobot tuzish va tayyorlashlarida albatta foydalanishga majbur. Chunki, uning maqsadi, ushbu nomdagi hisobotda pul mablag'lari va unga tenglashtirilgan mablag'lar summalarining o'zgarishi haqidagi axborotni taqdim etishdan iborat. Standartga muvofiq, pul mablag'lari harakati quyidagi uch yo'nalishda operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatga bo'lib tasniflanadi. Moliyaviy hisobot boshqa shakllardan pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotning farqi shundaki, unda foydalanuvchilarga quyidagilarni baholashga yordam beradi:

1. Korxonaning sof aktivlarining o'zgarishi;
2. Korxonadan moliyaviy strukturasi o'zgarishi (jumladan, likvidlilik va to'lov qobiliyati);
3. Iqtisodiy o'zgaruvchan vaziyat va holatlarda Korxonaning moslashuvchanligi, pul oqimlari hajmi(muddati)ga ta'sir etish imkoniyati.

Korxonadan kreditlari odatda moliyaviy faoliyatga kiritiladi. Biroq, bir qator davlatlarda korxonadan overdraftlari (talab bo'yicha to'lovlar) tashkilot pul oqimlarini boshqarishda uning ajralmas bir bo'lagi sifatida qaraladi hamda pul mablag'lari va

uning ekvivalentlari tarkibiga kiritiladi. Bunday korxonalar schyotlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, uning debetidagi summaning kreditiga nisbatan tez o'zgarishidir.

Pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot har qanday moliyaviy muassasa hisob tizimini muhim qismi hisoblanadi. Buyuk Britaniya va AQSh buxgalteriya hisobi majburiy qoidalarida ana shunday hisobot tuzishni talab qiladi. Mamlakatimizda ham O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan to'qimachilik korxonalariga shu talab qo'yilgan. Ma'lumki, barcha korxonalar moliyaviy hisobotning asosiy shakllari, ya'ni buxgalteriya balansini hamda foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni to'ldiradi. Xalqaro standartlarga muvofiq tuzilgan buxgalteriya balansini hamda foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot katta miqdordagi buxgalteriya operatsiyalarini hamda pul mablag'ining amaldagi harakati bilan bog'liq bo'lmagan schyot bo'yicha qoldiqlarni qamraydi. Hisoblab chiqarilgan foizlarning, ehtimol tutilgan yo'qotishlarga zahiralarning miqdori, kelajak davrlar majburiyatlari hajmining oshirilishi (masalan, soliq to'lovlari yoki kreditorlik qarzlari bo'yicha majburiyatlar hajmining oshirilishi) bunga misol bo'la oladi. Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot mablag'ning shu davrdagi haqiqiy harakatini ko'rsatadi, yuqorida aytilgan barcha operatsiyalarni chiqarib tashlaydi, chunki bu operatsiyalar schyotlarga o'tkazishda aks etadi.

O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik korxonalarida moliyaviy hisobot tuzish va tayyorlashda moliyaviy hisobotning 7- «Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot», 21-«Valyuta kurslari o'zgarishining ta'siri», 27-«Konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobot», 29-«Inflyatsiya sharoitida moliyaviy hisobot», 30-«Korxonalar va shu kabi moliyaviy muassasalar moliyaviy hisobotidagi axborotlarni ochish», 32-«Moliyaviy instrumentlar: axborotni ochish va taqdim etish», 33-«Aktsiya bo'yicha foyda», 36-«Aktivlarning qadrsizlanishi» va 39-«Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash» xalqaro standartlarini qo'llash maqsadga muvofiq. Chunki, tashqi audit tekshiruvida ushbu standartlardan foydalanish, to'qimachilik korxonalarida aktivlar va majburiyatlar, sof foyda, aktsiyadorlik kapitali haqiqiy qiymatini baholashda

xulosalar chiqarish imkoniyatini yaratadi, (3.2.1-jadval).

3.2.1-jadval


**Tashqi audit yordamida to'qimachilik korxonalarini moliyaviy holatini
xalqaro standartlar asosida aniqlashning tahlili**

№	Yirik tijorat Korxonalarini	Moliyaviy hisobot moddalari	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida korxonani yillik moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari o'zgarishi, (+;-) ming so'mda		
			2011 y.	2012 y.	2013 y.
1.	“INDORAMA-KOKAND TEXTILE”	Jami aktivlar	-224336,8	-202909,3	-212514,9
2.	“DAEWOO-BUKHARA-TEXTILE”		-47196,4	-58506,3	-88340,8
3.	“SURHON TEKS”		-40731,7	-52820,0	-76362,1
1.	“INDORAMA-KOKAND TEXTILE”	Jami majburiyatlar	+187692,9	+169121,4	+175849,5
2.	“DAEWOO-BUKHARA-TEXTILE”		+34633,2	+46970,2	+76055,7
3.	“SURHON TEKS”		+37011,8	+41847,2	+60549,4
1.	“INDORAMA-KOKAND TEXTILE”	Aktsiyadorlik kapitali	-36643,9	-33787,9	-36665,4
2.	“DAEWOO-BUKHARA-TEXTILE”		-12563,2	-11536,1	-12285,1
3.	“SURHON TEKS”		-3719,9	-4200,9	-6022,7
1.	“INDORAMA-KOKAND TEXTILE”	Sof foyda	-706,1	-664,9	-137,4
2.	“DAEWOO-BUKHARA-TEXTILE”		-368,4	-304,1	-413,5
3.	“SURHON TEKS”		-695,8	-776,3	-1227,5

3.2.1-jadvaldagi tahliliy ma'lumotlar ko'rsatishicha, tanlab olingan “INDORAMA-KOKAND TEXTILE”, “DAEWOO-BUKHARA-TEXTILE” va “SURHON TEKS” da tashqi audit tekshiruvini natijasiga muvofiq moliyaviy hisobotning 7-, 21-, 27-, 29-, 30-, 32-, 33-, 36-, 39-xalqaro standartlarini qo'llash orqali, moliyaviy hisobotda aktivlar, aktsiyadorlik kapitali, sof foyda ko'rsatkichlarining kamayishi, majburiyat summalarini esa oshishiga olib kelgan. Korxonani moliyaviy hisobotidagi ushbu elementlar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga muvofiq o'tkazilgan moliyaviy hisobotda o'zgarish sodir

etilishini taqozo etadi. 3.2.1-jadval ma'lumotlari ko'rsatishicha. Tahlil qilingan korxonalarda 2011-2013 yillarda moliyaviy barqarorlikni pasayganligi kuzatilgan. Shu bois, to'qimachilik korxonalarini xususiyatlarini e'tiborga olib, "Korxonalarda moliyaviy hisobot auditi" nomli auditorlik faoliyatining milliy standarti loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu standart to'qimachilik korxonalarini tashqi audit tekshiruvidan o'tkazishning samaradorligini oshiradi, auditorlik xulosasi haqqoniylikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, auditorlik tashkilotlari uchun qo'shimcha yo'riqnomalar vazifasini o'taydi.

Auditorlik hisoboti auditor (auditorlik guruhi rahbari) tomonidan tuziladi va auditorlik tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu hujjat auditorlik tekshiruv o'tkazish bo'yicha tuzilgan shartnomani tasdiqlagan buyurtmachiga taqdim etiladi. Agar auditorlik tekshiruv huquqni muhofaza qilish organlari (sud, prokuratura) topshirig'iga binoan o'tkazilgan bo'lsa, u holda auditorlik hisoboti ularga ham taqdim etiladi. Auditorlik hisobotidagi axborotlar maxfiy bo'lib, uchinchi shaxsga oshkora qilinmaydi. Hisobotning har bir beti tekshiruv o'tkazgan auditor tomonidan imzolangan bo'lishi kerak. Auditorlik hisobotining shakli va mazmuni audit ob'ekti, qo'yilgan maqsad va vazifalarga bevosita bog'liq bo'ladi. Hisobotdagi ma'lumotlar auditorlik xulosasini tayyorlashga asos bo'lib xizmat qiladi. Auditor tekshiruv natijalari bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini auditorlik xulosasida bayon etadi. Auditorlik xulosasi audit ob'ektlarining qabul qilingan qonun-qoidalarga mos kelishi bo'yicha auditorning yozma shaklda ifodalangan munosabatidir. Ushbu hujjat auditorlik hisobotiga asosan tuziladi. Auditorlik xulosasining hisobotdan farqi shundan iboratki, ushbu hujjatda audit natijalari bo'yicha faqat xulosa beriladi, xolos. Unda qisqa mazmunda audit ob'ekti, auditni o'tkazuvchi shaxslar, auditning asosiy maqsadi va natijalari ifodalanadi. Auditorlik xulosasida tekshiruv jarayonidagi noqonuniy muomalalar tufayli kelib chiqqan yoki keltirilgan zararlarning sabablari, sharoitlari batafsil ko'rsatilmaydi, chunki ular auditorlik hisobotida keng ifodalangan bo'ladi. Biz auditorlik xulosasining tarkibi nimalardan iborat ekanini quyidagi rasm orqali namoyon etishni lozim topamiz (3.2.1-rasm).



3.2.1-rasm. Auditorlik xulosasining tarkibiy tuzilishi

Auditorlik hisobotining turi va mazmuni audit ob'ekti, tekshiruv natijalariga bevosita bog'liqdir.

Audit natijalari 70-AFMSga ko'ra 2 xil shaklda: ijobiy yoki salbiy ko'rinishda bo'ladi. Lekin, salbiy xulosa auditor tomonidan asosli dalillar bilan isbotlangan bo'lishi kerak.

Maxsus adabiyotlarda va audit amaliyotida auditorlik xulosasining quyidagi turlari ifodalangan: shartsiz ijobiy xulosa; shartli ijobiy xulosa; salbiy xulosa; o'z fikrini bildirmasdan, ma'lumotnoma ko'rinishida xulosa berish. Bu 700-AXSda ham o'z aksini topgan.

Tashqi audit natijasi bo'yicha so'zsiz ijobiy xulosa Korxonada faoliyatida qabul qilingan qonun-qoidalarga, hisob siyosatiga hamda soliq kodeksi talablariga to'liq rioya qilganda beriladi. Shartli ijobiy auditorlik xulosasi Korxonada faoliyatida ayrim qonun-qoidalardan cheklanish hollari aniqlanganda, lekin ular mijozning umumiy hisob siyosatiga hamda moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatmaganda beriladi.

Audit natijasida salbiy mazmundagi xulosa muassasa faoliyatida qonun-qoidalarga to'liq amal qilinmaslik tufayli tuzilgan moliyaviy hisobot, uning joriy hisob ma'lumotlariga monand emasligi natijasida beriladi.

Auditor (yoki auditorlik tashkiloti) audit natijalaridan to'liq qoniqish olmagan hollarda o'z fikrini bildirmasdan xulosa beradi. Bunday mazmundagi xulosani berishga quyidagi holatlar sabab bo'lishi mumkin: audit jarayonida auditorga turli yo'llar bilan tazyiq o'tkazilgan bo'lsa; auditorga kerakli ma'lumotlar to'lig'icha taqdim etilmagan bo'lsa; auditorda korxonalar hisob siyosati bo'yicha ayrim shubhalar tug'ilgan taqdirda va h.k.

Auditorlik faoliyatining 70-90-sonli milliy standartlari to'qimachilik korxonalarida auditorlik hisoboti tuzishda alohida ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda amal qilinayotgan qonun-qoidalarga asosan auditorlik xulosasi uch turga bo'linadi: ijobiy auditorlik xulosasi, salbiy auditorlik xulosasi va xulosa berishdan bosh tortish to'g'risidagi (ariza) ma'lumotnoma. Buni biz xalqaro amaliyot bilan taqqoslaydigan bo'lsak, u quyidagi ko'rinish kasb etadi (3.2.2.-rasm).

Shu bois, To'qimachilik korxonalarida tashqi audit moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida o'tkazilishi xususiyatlarini inobatga olib, auditorlik faoliyatining milliy standarti 70-AFMSni xalqaro standart 700-AXSga muvofiqlashtirilishi hamda unga qo'shimcha qilib, «Ijobiy xulosani – ijobiy va shartli ijobiy xulosa», «Salbiy xulosani – Qoniqarli va Salbiy xulosa» turlariga o'zgartirilishi va uning mazmuni hamda tarkibini qo'shimcha tarzda kiritish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

№	Xulosa turlari	Milliy amaliyot va standartlarda	Xalqaro amaliyot va standartlarda
1	Ijobiy (so'zsiz)	+	+
2	Shartli ijobiy	-	+
3	Qoniqarli	-	-
4	Salbiy	+	+
	Xulosa berishdan bosh tortish to'g'risidagi (ariza) ma'lumotnoma	+	+

3.2.2-rasm. Amaliyotda qabul qilingan auditorlik xulosalari

Auditorlik xulosasi ma'lum tartibda rasmiylashtiriladi va tasdiqlanadi. Ushbu xulosalar shartnomadagi muddatlarga hamda auditning yakunlanishiga qarab imzolanadi. Xulosa imzolangan kundan boshlab unga o'zgartirishlar kiritish mumkin emas. Auditorlik xulosasi mijoz moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq hujjat hisoblanadi va matbuotda e'lon qilinadi. Auditorlik xulosasi kamida uch nusxada tuziladi va uning ikkitasi buyurtmachiga taqdim etiladi.

Tadqiqotlarimiz natijasida tashqi audit tekshiruvlari yakuni bo'yicha auditorlik hisobotining tarkibiy tuzilishi quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiq:

- tashqi audit hisobotining nomi;
- tekshiruvchi sub'ekt rekvizitlariga taalluqli paragraf;
- kirish qismi bo'yicha paragraf;
- audit o'tkazilgan masshtab (ob'ektlar) bo'yicha paragraf;
- fikr bildirish paragrafi;
- yakunlovchi qism va sana;
- auditor va tekshirilgan sub'ekt rahbariyati imzosi.

Tadqiqotlarimiz natijasida, auditning xalqaro standartlari asosida «Korxonalarda moliyaviy hisobot auditi» nomli auditorlik faoliyatining milliy standarti loyihasi ishlab chiqildi. Bundan tashqari, o'zaro munosabatlarda aloqalarni operativ zamonaviy axborot texnologiyalari va tarmoqlaridan foydalanib, amalga oshirish maqsadga muvofiq. Chunki, bunda abonent, bek-offis va front-offis xizmatlari ishga tushadi, bozordagi xizmatlar miqdori va sifatini oshirishga rag'bat uyg'otadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot ishida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida to'qimachilik korxonalarida tashqi audit tekshiruvini o'tkazishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati tadqiq etildi.

2. Respublikamizda auditorlik faoliyatiga oid amaldagi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonun hamda to'qimachilik korxonalarining tashqi auditiga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlari bozor munosabatlari talablariga mos ravishda doimiy takomillashtirishga muhtojdir. Shu bois, mamlakatimizda audit tizimining nazariy va huquqiy asoslari tadqiq qilindi hamda uni takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalar berildi.

3. Tashqi audit tekshiruvini o'tkazuvchi auditorlik tashkilotlari bilan to'qimachilik korxonalarini o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni huquqiy ahvolini mustahkamlash va tartibga solish maqsadida shartnomaviy qoidalarni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, auditorlik tashkiloti va korxonaning huquqi, majburiyati va mas'uliyatiga oid ko'rsatmalar, shartnomani bajarish bosqichlari, xizmat haqining tavsiflangan miqdori kabi qoida va shartlar qo'shimcha tarzda kiritilishi maqsadga muvofiqligi asoslandi.

4. Mamlakatimizda erkin raqobat muhiti auditorlik tashkilotlari o'rtasida shakllanayotgan sharoitda ularning reytingini aniqlab borish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, tadqiqot jarayonida auditorlik tashkilotlarining reytingini aniqlashning yangi mezonlari va ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Jumladan, auditorlik tashkilotlari faoliyatini baholash va reytingini aniqlashda tavsiya qilingan korporativ ko'rsatkichlar, korporativ toifasi, korporativ resurs indeksi, raqobat ustunligi, diskont va InRUz indeksi ko'rsatkichlaridan foydalanish maqsadga muvofiq, deb topildi.

5. Magistrlik dissertatsiya ishida to'qimachilik korxonalarida tashqi audit tekshiruvlari uslubiyoti va mexanizmini takomillashtirish maqsadida uni o'tkazish

bosqichlari belgilab berildi. To'qimachilik korxonalarida ularning ixtisoslashuvi va o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda, auditorlik tekshiruviga oid auditorlik ishchi hujjatlarining takomillashgan tizimi ishlab chiqildi va amaliy tavsiyalar berildi.

6. To'qimachilik korxonalarida tashqi audit tekshiruvi o'tkazishning amaldagi rejasini takomillashtirish yuzasidan uning tarkibiga qo'shimchalar kiritish taklif qilindi va uni amaliyotga joriy qilish uchun tavsiya etildi. Shuningdek, auditorlik dalillarini to'plashda testlash, skanerlash, tahliliy amallar samarali usullar ekanligi asoslandi.

7. To'qimachilik korxonalarida tashqi audit tekshiruvini o'tkazish jarayonida audit riskini kamaytirish maqsadida statistik va monetar tanlash usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslab berildi. Uni moliyaviy hisobot elementlariga tatbiq etish, xalqaro auditorlik tashkilotlari tajribasida keng qo'llanilayotgan kapital etariligi, aktivlar va kapital rentabelligi, aktiv va passivlar dinamikasi, kredit portfelining risk darajasi, kredit va investitsiya portfelini moliyaviy koeffitsientlar asosida tizimli tahlil qilish bo'yicha ilmiy takliflar berildi.

8. To'qimachilik korxonalarida moliyaviy hisobotini tuzish va uni tashqi audit tekshiruvidan o'tkazishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan keng foydalanish zarurligi asoslandi. Respublikamiz to'qimachilik korxonalarida moliyaviy hisobot tuzish va tayyorlashda moliyaviy hisobotlarning 7-«Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot», 21-«Valyuta kurslari o'zgarishining ta'siri», 27-«Konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobot», 29-«Inflyatsiya sharoitida moliyaviy hisobot», 30-«Korxonalar va shu kabi moliyaviy muassasalar moliyaviy hisobotidagi axborotlarni ochish», 32-«Moliyaviy instrumentlar: axborotni ochish va taqdim etish», 33-«Aktsiya bo'yicha foyda», 36-«Aktivlarning qadrsizlanishi» va 39-«Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash» xalqaro standartlaridan foydalanishni barcha to'qimachilik korxonalarida qo'llash maqsadga muvofiqligi asoslandi. Shuningdek, auditning xalqaro standartlaridan foydalangan holda, auditorlik xulosasi va hisoboti tarkibini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Rasmiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonuni. 1996 yil 30 avgust. – T.: Adolat, 1996.
3. O'zbekiston Respublikasining “Korxonalar to'g'risida”gi Qonuni. 1991 yil 15 fevral
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: O'zbekiston, 2008.
5. O'zbekiston Respublikasining “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlar huquqlarini himoyalash to'g'risida”gi Qonuni. –T.: Adolat, 1996.
6. O'zbekiston Respublikasi “Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi Qonuni. (yangi tahriri) – T., 2000 (o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan).
7. O'zbekiston Respublikasining “Davlat statistika to'g'risida”gi Qonuni. 2002 yil 12 dekabr.
8. O'zbekiston Respublikasining "Asosiy xo'jalik faoliyati daromadlari" nomli 2-sonli buxgalteriya hisobining milliy standarti.

II.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma'ruzalar

9. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizastiya va isloh etishdir.- T.: “O'zbekiston”, 2005.
10. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, halqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish asosiy vazifamizdir. -“O'zbekiston”, 2007.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi” ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi. 19.01.2014.

II. Kitoblar, monografiyalar va risolalar

12. Vahobov A. V va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. -T.:Sharq, 2005. – 580 b.
13. Do'smurotov R.D. Audit asoslari. -T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2010. -604 b.
14. Auditorlar uchun qo'llanma. i.f.d., prof. M.M.Tulaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. - T.;; O'BAMA, 2005, – B.196.
15. Abdulkarimov I.T. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish. T., “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2001. – B.320.
16. Abdulkarimov I.T. Finansovaya otchetnost, eyo xarakteristika i podgotovka k analizu. Tambov. TGU. 2002. – B.85.
17. Akramov E.A. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili. – T.: Moliya, 2003. – B.224.
18. Ergeshev E.E. Iqtisodiy va moliyaviy tahlil. Darslik. T.: Moliya, 2005. – B.345.
19. Karimov A.A. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va audit.- T.: Iqtisod-moliya, 2008. –B.153.
20. Kovalev V.V. Finansoviy uchets i analiz: kontseptualnie osnovi. M.: Finansi i statistika. 2004.
21. Musaev X ,N. Audit. Darslik. T.: Moliya, 2003. – B.220.
22. Mamatov Z.T. Audit. O'quv qo'llanma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2007.
23. Paridaev M.Q. Loyiha tahlili. Samarqand. 2001.
24. Podolskiy V.I. Audit. M.: YUNITI, 2006. – S.420.
25. Pugachyov V.V. Vnutrenniy audit i kontrol. Organizatsiya vnutrennego audita v usloviyax ekonomicheskogo krizisa: ucheb. –M.: Delo i servis, 2010. – S. 224.
26. Sanaev N. Audit. T.: Bilim nashriyoti, 2004. – B.267.
27. Axmadjonov K.B, Yoqubov I.I. Audit asoslari. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2009. – B.286.

28. Mamatov Z.T., Norbekov D.E. Audit asoslari-T: “IQTISOD-MOLIYA”, 2006. – B.140.
29. Naletova I.A., Slobodchikova T.E. Audit. – M.: Forum: INFRA –M, 2005. – S.176.
30. Pardaev M.Q. Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. I-II-qism. T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi. 2001.
31. Tulaxodjaeva M.M., Ilxomov Sh.I. Audit. O’quv qo’llanma. T.: 2005. – B.160.
32. Xasanov N.X., Najbitdinov S. Korxonada moliyaviy hisobotini baholash: muammolar va ularni hal qilish. – T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 1999.
33. Xasanov B.A., Zokirova M.Sh. Aliboev Z.A. Ichki auditni avtomatlashtirish asoslari. O’quv qo’llanma. – T.: O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2003. – B. 162.
34. Pardaev M.Q. va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. T.: Mehnat, 2004.
35. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, buxgalterlar va auditorlar milliy asotsiatsiyasi “Audit” 1-2-tom. T.: 2004.
36. Audit: Uchebnik dlya vuzov / V.I.Podolskiy, G.B.Polyak, A.A. Savin i dr. – 3-e izd., pererab. I dop. – M.: YUNITI-DANA, 2007. – S. 186.
37. Audit. O’quv qo’llanma. / Do’smurotov R.D., Fayziev SH.N., Qo’ziev I., Po’latov G’. – T.: TMI, 2007. B.139.
38. Tulaxodjaeva M.M., Ilxomov Sh.I., Fayziev Sh.N., Xodjaeva M.X., Tulaev M.S. Audit. – T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi”, 2008. I,II qismlar.
39. Audit. (darslik). / Tulaxodjaeva M.M., Ilxomov Sh.I., Axmadjonov K.B., Xodjaeva M.X., Tulaev M.S. – T.: TDIU, 2010. – B.460.
40. Mamatov Z.T. Xo’jalik yurituvchi sub’ektlarda moliyaviy hisobot auditini o’tkazishni takomillashtirish masalalari: Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -Toshkent.: O’zR Bank-moliya akademiyasi, 2005. – 40 b.

41. G'ulomxodjaev A. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy holati tahlili va auditini takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent.: O'zR Bank- moliya akademiyasi, 2009. –28 b.
42. Pardaev M.Q. va boshqalar. Korxonalarining iqtisodiy salohiyati tahlili. -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2003. -256 b.
43. Pardaev M.Q., Abdulkarimov I.T., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil. -T.: Mehnat, 2004. – 484 b.
44. Aliqulov A.I. Sovershenstvovanie ucheta zatrat na proizvodstvo, pererabotku i ischislenie sebestoimosti produktsii xlopka-sirtsya v xlopkovom komplekse (na materialax xlopkovodcheskix xozyaystv i xlopkooochistitelnix zavodov samarkandskoy oblasti: Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. –T.: Toshkent moliya instituti. 1999.– 24 b.
45. Pardaev M.Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida moliyaviy tahlilning nazariy va metodologik muammolari.: Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. –T.: O'zR bank-moliya akademiyasi. 2002. – 43 b.
46. Ilxomov Sh.I. Investitsiya faoliyatida buxgalteriya hisobi va audit.:Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. –T.: O'zR bank-moliya akademiyasi. 2005. -24 b.
47. Isroilov J.I. Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining iqtisodiy tahlili.: Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. –T.: O'zR bank-moliya akademiyasi. 2004. - 24 b.
48. To'ychiev A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mahsulotlarni sotish hamda moliyaviy natijalarni aniqlash hisobi va tahlilini takomillashtirish.: Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. -Toshkent.: O'zR bank-moliya akademiyasi, 2006. - 143 b.
49. Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish masalalari.: Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun

- yozilgan dissertatsiya avtoreferati -Toshkent.: O'zR bank-moliya akademiyasi, 2004. - 24 b.
50. Xolbekov R.O. Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish hisobini tashkil qilishning tamoyillari va uslubiyoti: Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: O'zR bank-moliya akademiyasi. 2006. – 46 b.
51. Zulunova F.A. Korxonalarining moliyaviy salohiyati tahlilini takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya va avtoreferat. – Toshkent: Bank-moliya akademiyasi, 2009.
52. Pardaev M.K., Isroilov B.I. Faktorniy analiz rezultatov deyatelnosti predpriyatiy //Ekonomicheskiy vestnik O'zbekistana.- Tashkent, 2002. -№ 10-11. –S. 26-28.
53. Kudbiev Sh. Korxonalar moliyaviy hisobotini takomillashtirish // Bozor, pul va kredit. –Toshkent. 2006. –№3. - 46-48 b.
54. Tojiboeva Sh.A. Savdo korxonalarining moliyaviy faoliyati ko'rsatkichlari tizimini takomillashtirish yo'llari // Iqtisodiyot va ta'lim. - Toshkent, 2005.- № 1. -95-102 b.
55. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2011-2013 yillar bo'yicha statistik ma'lumotlari.

III. Jurnal va ro'znomalardagi maqolalar

56. Mejdunarodnie standarti finansovoy otchetnosti: sootvetstvie i poryadok polzovaniya. /Buxgalterskiy uchet. №11,12, 2001.
57. Pardaev A.X. Qimmatli qog'ozlar - daromad manbai. /Jamiyat va boshqaruv. 2000,2-son.
58. Pribl na aktsiyu. /Buxgalterskiy ucheg. № 15, 2000 g.
59. Sotnikova L.V. Uchet doxodov v sootvetstvii s PBU 9/99 "Doxod organizatsii". /Buxgalterskiy uchet, № 6, 2000.
60. Uchet raschetov po dividendam. /Buxgalterskiy uchet. №23, 2000.

VI. Statistika ma'lumotlar to'plamlari.

61. O'zbekistonning 2013 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'rsatkichlari. T.: O'zbekiston, 2014.
62. "O'zbekiyengilsanoat" DAK ma'lumotlari.

VII. Internet saytlari.

63. <http://www.nalog.uz>
64. <http://www.norma.uz>
65. <http://www.tsue.uz>
66. <http://www.legprom.uz>